

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta’limi vazirligi

Erkin Vohidov

nomidagi

Ijod maktabi

**o‘quvchilarining ijodidan
namunalar**

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2024

UO'K 373.5.015.31:17.022.1(575.1)

KBK 74.200.51(50')

A 15

Loyiha rahbari

Hilola Umarova

Abdulhamidova, U.

Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi [Matn]: to'plam / U. Abdulhamidova; muharrir S.Nazarov. – Toshkent: G.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024. –164 b.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari bilan yosh avlodni vatanparvarlik, milliy qadriyat-larga sadoqat, ajdodlarimiz merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, zamonaviy, erkin fikrlaydigan hamda badiiy adabiyot va boshqa ijod sohalarida jahondagi tengdoshlari bilan raqobatlasha oladigan ijodkor shaxsni shakllantirish maqsadida Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi tashkil etilgan.

Ushbu to'plamdan Ijod maktabi o'quvchilarining she'riy va nasriy mashqlari o'rinn olgan.

UO'K 373.5.015.31:17.022.1(575.1)
KBK 74.200.51(50')

ISBN 978-9910-9138-1-5

© G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy
uyi, 2024



Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san’atimiz ham, albatta, bo‘ladi.

**Shavkat Mirziyoyev,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**

ERKIN VOHIDOV NOMIDAGI IJOD MAKTAEI

ERKIN VOHIDOV
NOMIDAGI
ijod maktabi

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning
tashabbuslari bilan yosh avlodni
vatanparvarlik, milliy qadriyatlargacha
sadoqat, ajdodlarimiz merosiga
vorislik ruhida tarbiyalash,
zamonaviy, erkin fikrلaydigan hamda
badiiy adabiyot va boshqa ijod
sohalarida jahondagi tengdoshlari
bilan raqobatlasha oladigan ijodkor
shaxsni shakllantirish maqsadida
Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi
tashkil etilgan.



**Umida
Abdushamidova**

11-sinf o‘quvchisi

VATAN HAQIDA

Neni sevdim, kimni sevdim
Keng joy berib yuragimdan?!
Ay, Jannatga o‘xshaganim,
Sening isming – tilagimda!

Maddohlaring bilib qo‘ysin,
Aytimasdir buyuk sevgi.
O‘zing tolib, o‘zing g‘olib
Sensan manim nurli tongim.

Elim demas yot kimsalar
O‘zlaricha xursand edi.
Yoqtirganing ne desalar,
Vatan dedim, Vatan dedim!

Yashnab ketdi xayollarim,
Yashnab ketdi bir o‘ylasam.
Shuncha yilki, anglaganim:
Borlig‘imda sen mujassam.

Yaxshiyamki Xudo bergan
Muhabbatim chuqur botdi.
Bilasan, bu tonglar mergan
Chap ko‘ksima seni otdi!

Eng buyuk ishq o‘zing ekan-
Tuyg‘ularga sayqal berdim.
Yuragimni ochib aytay:
Zabon endi turolmas jim.

Dedim: mehri quyosh balqqan,
Qalbi daryo, azim yurtdir!

Tarifini so‘zlamoqqa
Tuproqlari gullayotir,
Tuproqlari gullayotir!

YOZ YOMG‘IRI

Endi baxtli bo‘lishim tayin,
Oshiqligim ortar kun sayin...
Yuragimga bir tomchilagin,
Yoz yomg‘iri.

Seni sevdim, oshkor, pinhona,
Sevgi dardi buncha yomon-a?
Erta-indin bizlar begona,
Yoz yomg‘iri.

Sening qadim manziling – bulut,
Muhabbatim dilimda – yoqt.
Bizlar bir kun uchrashamiz, kut,
Yoz yomg‘iri.

Seni menga berdi saraton...
Seni mendan oldi saraton.

Men yerdaman, manzilim – osmon,
Yoz yomg‘iri...

MUSAVOYNING PUSHAYMONI

(Donishqishloq hangomalari
turkumidan)

Qaytar edi Musavoy
Aldarko‘sa to‘yidan.
Yo‘lda uchradi daraxt,
Katta edi bo‘yidan.

Maqtangisi keldi u,
Tovlanib ketdi g‘urur,
Odamlarga qarata
Dedi: “Faqat men jasur!

Kerak bo‘lsa, baquvvat
Polvonlarni yiqaman.
Hech kim chiqqa olmagan
Shu daraxtgaga chiqaman!”

“Chiqma!” – dedi kattalar,
U baribir ko‘nmadi.
“Yiqilasan”, – deyishsa,
Hech ham qulq solmadi.

Oxir chiqqach daraxtga,
Kerildi-ku keng qaddi.
Chiqishga chiqib olib,
Endi qanday tushadi?

“Shamollaysan, tezroq tush”,
– O‘tganlar gap qotadi.
U-chi, bahona izlar:
“Menga shu yer yoqadi”.

Xullas, odamlar hayron
O‘tar daraxt yonidan.
Musavoy tusholmasmish
Hanuz chiqqan joyidan.



**Amirulloxon
Ismoilov**
11-sinf o‘quvchisi

CHEKSIZLIK

“Yo ‘q, halovat istamayman...”

Erkin Vohidov

“Jim” so‘zini qo‘llamang ortiq,
Yoq, halovat istamayman, bas!
Ishqdir Haqdan shoirga tortiq,
Yurak tugul vujudga sig‘mas.

Yo‘q, halovat istamas jussam
Beg‘amlarga ketgum tupurib.
Bu dunyoni titratgan tovush –
Yuragimning dupur-dupuri.

Halovatni suymas she’riyat,
Lug‘atimda yo‘qdir erksizlik.
Mening asl ismim – hurriyat,
Qalbim erur asil cheksizlik!

AJRIQ

Biz asli tuproqdan unib chiqmadik,
Vatanimiz bo‘ldi xarsanglar, toshlar.
Biz yerning tubidan suv simirmadik,
Bizni to‘yintirdi Yaqubiy yoshlar.

Gohida quyoshni tog‘lardan so‘rab,
Oyning jamolini ko‘rdik tushlarda.
Shirin iforlarni taratmadik ham,
Arilar ta’rifin so‘rdik qushlardan.

Bizlar ko‘klamlarni orzu qilmadik,
Xarsang toshlar bo‘ldi bizlarga vatan.
Tomirim o‘rnashgan taqir dashtlarni,
Yashil vodiylarga aslo alishmam.

TILIM

Tilim...

Yuragimda porlagan uchqun,
Seni qalbim to‘riga yozdim.
Seni qancha e’tirof etsam,
Qancha ta’rif bersam ham ozdir.

Men chaqaloq bo‘lgan lahzalar,
Beshigimdan topganman panoh.
Vatan deya tilim chiqqandi,
So‘rg‘ichimdan so‘rang, u guvoh.

Tilim, seni olqishlab emas,
Yuragimga ko‘mib sevaman.
Seni ummon sohiligamas,
Qalb toshimga yo‘nib sevaman.

ONAM

To‘marismas onam, Turkonmas onam,
Qahramonmas onam, sultonmas onam,
Atirgulim desam, rayhonim desam
Nega endi menga ishonmas onam?

Oy yuzli dilbarim, farishtam manim,
Yopinchig‘ing bo‘lay, orom ol bir zum.
Uzoqroq uxlugin, tabarruk, nurli
Peshonangga to‘yib boqmog‘im uchun.

Ey sozi zilolim, chehrasi shafaq
Yuragida ming bir tashvish yastangan.
Kamtarinim manim, maylimi seni
Og‘zimni to‘ldirib bir bor maqtasam?

Chakkangda rayhon-u, qoshingda o‘sma,
Yalpizbo‘y bag‘ringga qo‘ysam-da boshim.
Bugun qor sochingni borchha ko‘rmoqqa,
Imkon yaratmoqda balog‘at yoshim.

Ey, manim orzusi ko‘klarga tutash,
Ko‘zlagani bir shu o‘g‘lidan bo‘lgan.
Yana topa olish iloji bormi
Qadoq qo‘l taftini bu dunyo bo‘ylab.

Hadichamsan onam, Oyshamsan onam,
Fotimamsan onam, Zuhromsan onam,
Faqat bir xokisor, faqat bir ojiz
Maminsan san onam, manimsan onam.

OTA

Dadamning poychasi chang keldi,
Yuzlari qip-qizil rang keldi.
Bir qo‘lda men uchun handalak,
Bir qo‘lda ketmoni zang keldi.

Boshida durrasi oppog‘im,
Yelkaga ming tashvish ortmoqlab,
Yuzida tabassum, ohohlab,
G‘am kelsa, g‘olibi jang keldi.

O‘ynasam tanburim diltori,
Oddiymas, emas el qatori,
Kuylasam qarsagi dutor-u
Barmog‘i qobuzi chang keldi.

Sochining qorasi sanoqli,
Otam-a, qo‘llari qadoqli.
Bugun siz uchun to‘rt qatorli
She’rimni ko‘tarib man keldim.





Muslima
Tohirjonova

11-sinf o‘quvchisi

MENGA YAQIN BO‘L, DO‘STIM!

Taqdir bizga k尔di chin,
So‘zлaringda jam ochun,
Qalbingda ne yashirin,
Menga yaqin bo‘l, do‘stim!

Tutmagay yov yolg‘on may,
Ishonch bo‘lsa birtalay,
Ro‘yodan so‘z boshlamay,
Menga yaqin bo‘l, do‘stim!

Qiynalarkan har odam,
Bosmoq uchun bir qadam,
Kerak bo‘lsa ham yordam,
Menga yaqin bo‘l, do‘stim!

KUTISH

Yaproqlaring poyimga uchar,
Va ko‘z yoshing tutar bag‘rimni.
Suronlardan yetib kelmagan
Yoziqlaring mening qadrimmi?

Darvozamni itarar bo‘ron,
Chaqmoq qalbim yoritar shu tun
Javoblarni kutish dastidan
Yaqinlashib keladi iyun...

Otashlarga to‘ladi ko‘ksim
Avto kelar, pochtachi zimda.
Yuragimda quvonch to‘lgan on
Shamol changlar jamlar ko‘zimga...

JO'LAMON

Chindan-da bilmayman kimligim hatto
Asli nima o‘zi Vatan, ona yurt?
Manguga ongimda endi bir dog‘ bor
Otasin unutgan manqurtman – manqurt.

Shunday yov, shunday dard – bilmasman holim
Bilolmam hech qachon kimsadan so‘rab.
Yov olsa bo‘lmasmi yuragim, molim
Tiriklay ongimni olgandan ko‘ra.

“Sening isming...” – derdi titratib jismim
Menga onangman deb aytgan bir ayol.
Men esa dushmanim qahridan qo‘rqib
Tuyalar uyurin qilaman xayol.

Bir kuyni tinglasam, dunyo bo‘lar tinch,
Yuragim yurtimda, topolmasman lek.
Qani, yo‘q bo‘lsam-da, menga kuyingan
Ayolning umriga qo‘yilmasdan chek.



**Dilnura
Hamdamova**
11-sinf o‘quvchisi

YOMG‘IRDA

O‘rindiqda o‘tiramiz jim,
O‘rtamizda qiqirlaydi baxt.
Xiyobonni yuvarkan yomg‘ir,
Tomchilar-la sirlashar daraxt.
Shum xayollar kezar atrofni,
Daraxtlar ham egik meningdek.
Menga ta’zim qilar bulutlar,
To‘g‘ri, qaddim egik, g‘urur tik.
Yomg‘irlarni ko‘mar qa‘riga,
Bizga hamroh bo‘ladi zamin.
O‘rindiqda o‘tiramiz jim:
Soyabon va men!

SONET

Qo‘shqanot baxt tiladim sizga,
Bulutlardan, ko‘nglimdan-da oq.
Tomirimda yangicha sezgi,
Ruhim uyg‘oq, vujudim uyg‘oq.
So‘roqlardan muzladi boshim,
Ko‘nglingizda ne bor bilmayman?
Qorachiqqa indi ko‘z yoshim,
Men yashayman, hali o‘lmayman.
Xayollardan bezigan bag‘ir,
Lolalardan qirmiz etagi.
Sizsiz yashash, na qilay, og‘ir!
Serjilo ishq tutdi mo‘yqalam,
Sizni chizdim yoningizdagi,
Baxtga to‘lgan qoraqiz bilan!





**Durdona
Tursunova**
11-sinf o‘quvchisi

QISH

Erta tong, izg‘irin, qahraton sovuq,
Derazam ortidan mo‘ralaydi qor.
O‘sha laylakqorning ostida kimdir
Mening yo‘llarimga mushtoq, intizor.

Oqlikdan, poklikdan qamashdi ko‘zim,
Hatto yuragimda o‘zgacha tuyg‘u.
Kulib yuboraman o‘zimdan o‘zim
Muhabbat so‘ziga beraman urg‘u.

Bir so‘zni aytaman, baralla hozir,
Oradan o‘tsa ham, qara, shuncha ish.
Birgina muhabbat o‘zgarmas ekan,
Aytilgan vaqtida kelganiday qish!





**Muqaddas
Muhammadaliyeva
11-sinf o‘quvchisi**

KUNDALIKDAN

Ezgulikning yelkalar keng,
Chidab berar, pichoqlar suqsang...
Uzo-o-oq yillik armon badali –
Dardlarimga qorishar g‘ussang.

Va bir kuni tong ham otadi,
Kesishadi muhabbat yo‘li.
“Axir, to‘la ulgurmadi men,
Hayotingning mazmuni bo‘lib!”

KO'NGIL

Xilvatlarda qaroqlaringga
Yosh quyilar yig‘lagan saring.
So‘ng yuztuban tongimga boqib,
Go‘daklanib borar ko‘zlarling.

Taroziga solinar aprel,
Jigarimni ezadi tahqir.
Axir, menga nasib etmagan
Yomg‘irlardek to‘kilish baxti.

Xilvatlardan tongimga boqib,
Quv osmonning bujmayar afti.
Ne sababdan muzlab boradi
Sochlaringning taftida kaftim?

O‘nglarimda horg‘in ko‘rkimda
Nish uradi o‘lik irodam.
Sen tomonga bir qadam tashlar
Bori rashkdan paydo bir odam.

Sezishimcha... tolib ketasan,
Kiprigingda loshimni tirkab...

...Ne shafoat tilayman Haqdan
Barin yo'yib ketsang taqdirga?..

Ilohiy ishq bo'lsin, ilohiy,
Mavjlansin, tashlasin ming qadam.
Yozmoqqa, yonmoqqa yetarli
Bir shoir, bir tuyg'u, bir qalam.

Koinot – eng qadim falsafa:
Bir fazo, bir necha sayyora.
Bunda ham xayoldek sarhad yo'q,
Baxt bilan yashasang bir bora.

Hayotning qilmishi ko'p sodda:
Bir ixlos... va biroz muhabbat.
Ko'ngilda... Tomirda... Oningda
Bir shayton yashaydi to abad.

Ishq bo'lsin ilohiy, ilohiy,
Daryolar tubiga cho'ksin nam.
Yozmoqqa, yonmoqqa yetarli
Bir shoir, bir tuyg'u... Ming alam... Va qalam!..

BAXT

Yaproq‘ini sochar so‘qmoqlar,
Ko‘ngil olar sahar shabboda.
Qirov qo‘ngan hokim maysadan
Oshiqlarga tutilar boda.
Manzilimga borar yo‘lim sor,
Tole kabi yo‘ldoshlarim jim.
Yaratganga tavakkal qilib
O‘zim yolg‘iz safarga chiqdim.
G‘o‘r ko‘nglimning ishq darchasidan
Tong shu'lalar taratar barvaqt.
Yuragimga sirg‘alar sekin
Yonog‘imda muzlab qolgan baxt.

O‘N TO‘RT YOSHIM

O‘n to‘rt yoshim – o‘n to‘rt xil olam,
Gardaniga tushar yukiman.
Otam menga qo‘ygan ismga
Loyiq inson bo‘larmikanman?!
Xayolimning bir burchi siniq,
Yuragimdek yarimjon nima?
Men betakror oshiqman, ammo

Yarim ko‘nglim bilmayman kimda!..
Xayollarga suyanib sekin,
Kutayapman kelgusi yoshni.
Uzib tashlash darkormi, ayting,
Bir yoqadan chiqmagan boshni?
Qo‘llarimga qalam ushlatdi,
Barmog‘ida mehr gullagan.
Otam menga bergen ishonchga
Loyiq farzand bo‘loldimmikan?!

VATAN

Men umrim, jonimni baxshida etgum
Nur vodiyday go‘zal, tanho yupanchga.
Axir, shu-da har kun sahar chog‘ida
Yuragimga baxtlar tig‘ini sanchgan.
Men baxshida etgum umrim, jonimni
Har olgan nafasim – mashaqqat uchun.
Axir, sizda biz ham yashab yuribmwiz
Sahroni gullatgan buyuk xalq uchun.
Baxshida etgum men umrim, jonimni
Baxshida onam o‘t qalagan tandir.
Men-ku bu zaboni gullagan xilqat,
Muqaddas, muqaddam so‘zim – Vatandir!

NOYABR

Sen bariga bosh egib, bunda
O'zingdan ham ketganing kabi
Ma'sum, horg'in holda bog'lardan
Bugun oyoq ildi noyabr.

Kunlaringga yummay turib ko'z,
Diydor topmoq mumkin, aftidan...
O'tolsak bas – qish qirovi ham
Bahor baxti, yozning taftidan.

O, qanchalar ko'ngilga yaqin,
O, qanchalar umringga uyg'un –
Har mavsumda bitta faslni
Kutmoq bo'lgan g'alati tuyg'u.

Bir yelkaga og'ir shu qadar
Toqat toshi – azal-azaldan.
Faqat mo'min yaproq umrini
Yashash mumkin bitta faslda.



Muxsisa
Haydarova
11-sinf o‘quvchisi

SUBHIDAM MANZARASI

Quyoshning qo‘lida jon berdi kecha,
Ufq qonga belangan, qo‘lida nayza.
Azon chaqiradi muazzin qushlar,
Shundan so‘ng bosh qo‘yar sajdaga maysa.

Yulduzlar so‘kilgan chok-choklaridan,
Aslicha qolmagan birorta tola.
Bir zum sukut saqlar borki tirik jon,
Qo‘llarin duoga ochganda olam.

Odamlarni qarshi oladi zamin,
Tabiat-la birdam uyg‘onar inson.

Nurlarni opichlab yurib kelar tong,
Tunning o'lganini qiladi ayon.

Quyosh qo'llarida jon berdi kecha...

TUN

Xuddi uxbab qolayotganday,
Sukunatga cho'mar bizning bog'.
Go'yo bola zulmatdan qo'rqib,
Oy nuriga to'ladi chorbog'.

Jimjitlikka xalal bermasdan,
Shoshmay, asta oqayapti soy.
Yulduzlar-la bezagan yuzin,
Olmos taqib qo'yganidek oy.

Uzoqlarda uvullar bo'ri,
Oyga qarab aytar ashula.
Yonar qurtlar kezadi atrof,
Har tomonga sochadi shu'la.

Chigirtkalar chirillar tinmay,
Alla aytar olamga go'yo.
Yer zulmatga to'lgan pallada,
Orom olar butun bir dunyo.



**Nilufar
Hakimova**

11-sinf o‘quvchisi

KUZ SHE’RI

Qorong‘i tun, hamma yoq jimjit,
Orom olar hamon tabiat.
Hech qandayin chiqmaydi tovush,
Unga kerak ulkan shijoat.
Nurli tong ham otdi oxiri,
Ko‘zlarimga ko‘rindi shu’la.
Shu shu’laning qaynoq bag‘rida,
Kuz ohista kuylar ashula...

YOMG'IRGA

Bulutdan yuzimga ko‘chganing uchun,
Tig‘laring ko‘ksimga sanchganing uchun,
Va’dangni bajarmay, qochganing uchun,
Endi tin...

Manzilim so‘roqlab o‘tar kuzaklar,
Og‘rigan jonimga botar kuzaklar.
Ikki ko‘zim aro yotar kuzaklar,
Endi tin...

Vujudim charchagan sabr qilishdan,
Sen esa tinmaysan jabr qilishdan!
Anchayin tiyildim nedir qilishdan,
Endi tin...

Qalbimni nimtalar har bitta tomching,
Qilmoqda jon talab har bitta tomching!
Lek dilga o‘t qalar har bitta tomching,
Endi tin...

Bo‘ldi, chek qo‘yamiz bardoshga, qani,
Bir o‘lim bor xolos bir boshga, qani.
Bas, osmonni, bo‘shat quyoshga, qani
Endi...tin!

MUZLAGAN QOYALAR

Muzlagan qoyalar to'ksalar ko'zyosh,
Ular quvonchligin anglamas hech kim.
Suratin o'chirsa muzyurak naqqosh,
Bahorga aylanib qolar yuragim.

Izg'irinda qolgan sarson tuyg'ular
Qachonki anglasa kim ekanligin,
Yaxlagan yo'llarga sepilganda zar
Bahorga aylanib qolar yuragim.

Kurtaklar uyg'onsa – yuzlarida noz,
Dunyolar nurlarga to'lsa limmo-lim.
Nozik tuyg'ularim topsalar e'zoz,
Bahorga aylanib qolar yuragim!..

KECHA

Samoda saf tortar yulduzlar asta,
Falak aqlim olar, chalg'iydi xayol.
Go'yoki turadi go'zal guldasta,
Har tomonga sochar nurlarin hilol.

Mening sochlarimni tinmay taraydi,
Uning nurlaridir menga taqinchoq.

Fazodagi durlar zimdan qaraydi,
Soyning yuzlarida porlovchi munchoq.

Kecha xayolimni o‘g‘irlab olding,
Osmondagи оying naq oshno qildi.
Ishqingning o‘tida ne ko‘yga solding,
Seni sevishimni yulduzlar bildi.





**Nuriddin
Rahmonaliyev
11-sinf o‘quvchisi**

HARGIZ ISHQIM CHASHMASI...

Hargiz ishqim chashmasi yor vaslasi timsolida,
Mahbub husning sharpasi dil vasvasi asrorida.

Oshiq ul ishq dastidan to sahar ul yor vasfini
Kuylabon, tush allasidek nafsining iqrorida.

Ey, mani etsang munodo bir shirin so‘zing bilan,
Sayr istadim ov aylamak ko‘nguling sayyorida.

Yor mani etsang firoq, aylar fig‘on dil na’rasi,
Bo‘limgay ko‘ngil hazin ishq kalmasi takrorida.

Aylagil ishqing bila otash dilim har soniya,
Kuydirib lov-lov mani, vasling sani axborida.

MARHABO

(*Nodira g'azaliga tatabbu*)

Har nazar ovvoramen, gulzorimga marhabo,
Ne shukr, bir bor qulq sol oh-zorimga, marhabo.

Sayr istadim ov aylamak ko‘ng(i)ling sayyorida,
Birga charx urib jahonda, shikorimga marhabo.

Men kezib so‘z bozorida, chun o‘n besh yil
o‘yladim,
Bir soatga taklif etgum, izhorim-a marhabo.

Har muqaddas yo‘llaringga men o‘zim
bormoqqa shay,
Bu safar oldidan, ey, raftorimga marhabo.

Yo‘llaringga bormoq uchun yo‘llarim
xazongashta,
Sharob istadim, ayyom-u navbahorimga
marhabo.

Xush kelibsan debon xursand sog‘inib kelsang
magar,
Bir kelib ketsang, sezur dil, mozorimga marhabo.

Bir visol vaslida tun to‘kdi tugun ash’orim-a,
Ey Nuriddin, o‘tguncha tun bedorimga marhabo!!!





Samandar Sirojiddinov

11-sinf o‘quvchisi

QISHLOQ

Qishlog‘imni sog‘indim bugun,
Chang ko‘cha-yu keng dalalarni.
Bolaligim qolib ketgan, eh,
Quyosh botgan o‘sha qirlarni.

Vaqt o‘tadi shoshgancha hayron,
Xayollarim yo‘li – muhabbat.
Arslondan qochgandek jayron,
Tutib olish buncha murakkab?!

Zilol suvlar, olma daraxti...
Sog‘inch – azob, o‘rtaydi jonim.

Shu shaharning ulkan bag‘rida
Sog‘inyapman seni, qishlog‘im!..

MANZARA

Quyosh mo‘ralaydi mitti go‘dakday,
Maysalar ko‘zini oladi asta.
Yuragi bahorga intiqqan daraxt
Bugun boshqachadir – yuragi xasta.

Nurlari eritar muzyuraklarni,
Ezgulik urug‘in sochar har yerga.
Erta tong shamoli quchadi bag‘rim,
So‘ng olib ketadi xayol shahriga.

Tuyg‘ular o‘zgacha, dunyo o‘zgacha,
Zamin ko‘ksim bilan yashnaydi birga.
Subhidam dilga tong shu’lasi tushib
Tark etmas yurakni butun umrga...



**Shoirbek
Rahmatullayev**
11-sinf o‘quvchisi

QISHGACHA

Dunyo tor-u, odamlar ko‘p,
Qalbimda bir dunyo dard.
Turli-tuman insonlar bor:
Kimlar tinglar...
Kimlar karaxt...

Yurak yondi, tuyg‘u olov!
Saratonda yurgan bizlar.
Qishga borib bahoriga
Yetolmadi sabrsizlar.

Yer qorigan zuvalamni,
Osmon ezgan bu gavdamni,

Kuzlar o‘tib so‘ng qahraton
Muzlatadi qish hammani.

Qahratonda qolgan hislar
Muzlab qoldi, muzlab qoldi.
Qadrim bilmas qadrsizlar
Bo‘zlab qoldi, bo‘zlab qoldi!

SAODAT

Men seni izladim devona bo‘lib,
Soat millarini quvganimda ham.
Men seni izladim devona bo‘lib,
Oltin qafasdagi bulbullardan ham.

Va lekin topolmay chekdim ko‘p azob,
Misrda ehromlar qurdim qul bo‘lib.
Bozorda sotildim Bilol Habashdek,
Mehnatga yaralgan qora qo‘l bo‘lib.

Men seni izladim devona bo‘lib,
Qidirdim bu dunyo mayxonasidan.
Men seni izladim mastona bo‘lib,
Va topdim Vatanim ostonasidan.



**Difuzza
Baxtiyorova
8-sinf o'quvchisi**

ZULFIYA SHE'RIGA NAZIRA

“Menga xasis keldi tabiat,
Shodligimga alam qorishiq...”
Qish qoriga qilolmay toqat,
Boychechakdan kutdim rangin ishq.
Menga xasis keldi tabiat,
Mahzunliklar ichra adashdim.
Bosib qoldi ko‘nglimni haybat,
Ko‘zlarimga qayg‘u qadashdi.
Menga xasis keldi tabiat,
Hatto quyosh yo‘qlamas nechun?
Qish oxirlab qoldi, xayriyat,
Binafsha barq urishi uchun.
Kel, xasislik qilma, tabiat...



*Muhsina
Abduslayeva*
8-sinf o‘quvchisi

MATONAT

Oymomoning nurlari gohi
Ko‘zlarimga ketadi cho‘kib.
Kunlar meni kutar bekatda,
Yulduzlarday ketarman o‘chib.
Nur sochsa ham qalbimda quyosh –
Bag‘rim tosh.

Kunlar yaqin sanab umrimni,
Kelajagim sochmoqda ziyo.
Qayg‘u mendan kechmasa hamki
Armonlarga boqmasman qiyo!

To‘kilmaydi qarog‘imdan yosh –
Bag‘rim tosh.

Bir hayajon bossa ko‘nglimni,
Titrab-titrap o‘tganda tunim,
Bu bosh misli bir qattiq toshki
Azoblar ham yorolmas uni.

G‘am-g‘ussaga hech egmasman bosh –
Bag‘rim tosh...





**Rahimaxon
Nosiraliyeva
8-sinf o‘quvchisi**

BAHORNI SOG‘INIB

Bahor, seni sog‘inib,
Bitdim senga bu kun she’r.
Yurakkinam og‘rinib,
Seni qachon kelar der.

Gullar tezroq ochilsin,
Erisin tezroq qorlar.
Chiroq ham kamroq o‘chsin,
Nurga to‘lsin uy-joylar.

Xullas, shunday so‘zlarni
Ishlatdim hech ayamay.

Seni maqtadim hozir,
Qishligiga qaramay.

Chunki mening yuragim
Taftingga ko‘p intizor.
Seni juda sog‘indim,
Ko‘klamoyim, navbahor!

RASSOM

Bulut to‘kadi ko‘zyosh,
Maysalarni qilib nam.
Bu yosh emas – billur tosh
Zavqlantirar meni ham.

Tabiat – oliy rassom
Tasviri buyuk asar!
Bularni ko‘rgan odam
Albatta, ta’sirlanar!

Gul-u g‘uncha, maysa, tosh,
Sabr timsoli – daraxt,
Menga ulashar bardosh
Oldinda kutadi baxt!



Ozoda
Muhammadiyeva
8-sinf o‘quvchisi

ERK

She’riyat ko‘prigin chegarasida,
Turibman hayajon bosgan yuragim.
U yo‘ldan o‘tmoqchi bo‘laman ammo,
Qo‘rqaman, cho‘kkalab qolarman balki?

Ko‘zimga ko‘rinar turfa xil azob,
Kiprikdek tizilib turar zalolat.
Qalbimning qafasin changallab shartta,
Chiqmoqlik istaydi, mag‘rur jaholat.

Burchakda yotibdi sho‘rlik, haqir she’r,
Chang bosgan yuzida ko‘rinadi yosh,

Aylangandek shabnam zumda shudringga,
Qalb qa'rida dorga osilar bardosh.

Jismimning g'uborli burchaklaridan
Izlayman mudragan xohishlarimni,
Topaman axiyri tilaklarimdan
Matonat ismli nolishlarimni.

Har yo'lning oxiri nur bo'lganidek,
Ko'prikning so'ngida porlab turar ERK.





**Nurjahon
Nazridinova**
8-sinf o‘quvchisi

SO‘Z ZARGARI

So‘z zargari – shoirqalblilar,
She’rga tizar so‘zni marjonday.
Xayolotning sohiblaridir,
Ko‘zlarda terilgan mujgonday.

Yomg‘ir tomsa, ko‘rinar inju
Nigohida gul o‘sar toshdan.
Butun umr tinim bilmaydi,
So‘zni yo‘nib, so‘zni tarashlab...



**Mumtoza
Begmatova
8-sinf o‘quvchisi**

KUZGI BOG‘LAR

Kimsasiz bog‘,
Uzun yo‘l,
Ustini qoplagan za’faron barglar,
Ust-boshi yomg‘irdan bo‘lgan shalabbo,
Shubhasiz, beradi kuzdan daraklar.

Sukunat,
Jimlik va g‘ashlik.
Butun bir bog‘ni qurshab g‘ashlagan,
Onadan ayrılgan go‘dak singari,
Yo‘llarda xazonlar yig‘lay boshlagan.

Salgina narida, cho‘ng o‘rindiqda,
O‘tirar yolg‘izlik istagan bir qalb.
Aftidan, ahvoli yengil emasday,
Xuddiki, ketganday suygani tashlab.

Men esa shu chog‘da, ayni shu chog‘da,
Yerni qoplab olgan xazonlar bilan
Chin dildan, chin dildan sirlashgim keldi.

Besabab yig‘lagan osmonim bilan
Yig‘lashgim,
yig‘lashgim
yig‘lashgim keldi.

CHEGARA

Negadir havoning avzoyi buzuq,
Aya, u ham mendan xafamikan-a?
Qushlarning xafahol chug‘urlashidan
Sezyapman, ular ham qilmoqda gina.

Osmonning qahrli gumburlashi-yu,
Tikanli gulbarglar sarosimasi...

Ayting, og‘zi ochiq ajdarga o‘xshab
Jarliklar qa’riga meni tortmasin.

Qontalash ishonchim bag‘rimga bosib,
Yuragim tozalab tig‘simon garddan,
Aya, ushlab turing, chiqib ketmayin
Baxt degan shaharning chegarasidan.





**Nodirabegim
Xoldaraliyeva
8-sinf o‘quvchisi**

O‘ZBEKISTON

Tug‘ilganman ozod vatanda,
O‘zbekiston degan chamanda.
Ona yurtim, aziz tuprog‘ing
Hilpiraydi ko‘kda bayrog‘ing.

Buyuklar ham chiqqan bu yurtdan,
Insonlar bor har xil millatdan.
Quchog‘i keng, mehrga boysan,
Dunyoda eng chiroyli joysan!

Chiroyingga tegmasin ko‘zlar
Senga ta’rif bersam, oz – so‘zlar.

Qalbimda sen hamisha borsan
Xalqing uchun ham do'st-u yorsan!

Jahon ichra hursan, yagona,
Sen biz uchun bo'lgaysan ona.
Kelajaging bizlar qurgaymiz,
Senga sodiq farzand bo'lgaymiz!

URUSH

Vayrona ko'chalar ingraydi noxush,
Tim qora ko'zlarda to'xtamas ko'zyosh.
Va tong ham otmaydi, kechalar o'tmas,
Va qizdirmay qo'ygan kaftlarni quyosh.

Intizor hislarda yarador tana,
Qora tutunlardan qoraygan zamin.
O'q teggan yurakni ko'ksiga olib,
Unsiz qabristonlar qilar tantana.

Murg'ak ko'ngillarda haybat, iztirob,
Zanjirband dillarda qutulish hissi.
Kelajak orzusi bo'lmayin xarob,
Tinchlik nomi ila to'xtasin urush.

MAKKAO‘XORI

Tanishib qo‘yaylik bir
Nomim makkajo‘xori.
Sabzavotlar ichida
Mening nomim yuqori.

Xoh qaynating, qovuring,
Xoh bodiroq qilib yeng.
Meni xo‘p yetishtirgan
Dehqonlarga rahmat deng.

Sochlarim ham o‘rilib,
O‘ng tomonga taraldi.
Men xursandman bu turmak
Zo‘r modaga aylandi.

Meni ko‘p-ko‘p yeb turing,
Menda vitamin koni.
Tovuqni semirtirgan
Mana men uning doni.



**Husnida
Xo'jayeva**
8-sinf o‘quvchisi

QAHRATON

Qahraton qilichin qayrabdi,
Suvlar ham kiyibdi muz ko‘ylak.
Tabiat sovuqdan titrabdi,
Ko‘klamga yetishish-chin istak.
Xayolga berilgan oynalar,
Naqqosh qish ishidan yasandi.
Qo‘rmasdan qahraton qahridan,
Bolalar ko‘chada yayraydi.
Sovuq kun o‘tadi zavq bilan,
Dilimga olovlar yoqadi.

Kumush qish,
Zarrin qor, oh, nechun
Menga ham, sizga ham yoqadi?!

ONAM

Bog‘imdagи gullar gullasin,
Mayin essin shabbodalar ham.
Tong chog‘ida gulning yuzida,
Yaltirasin chiroyli shabnam.
Yana quyosh sochsin nurini,
Nurga to‘lsin tevarak, olam.
Ortga otib qora tunlarni,
Baxtli bo‘lib yashasin onam.





**Shaxzodabonu
Ahmadova**

8-sinf o‘quvchisi

BAHOR

Qora sovuq qiyndi,
Kam bo‘lsa-da garchi qor.
Uyda dimiqib yotib,
Seni sog‘indik bahor...

Ariqlarda yuz yuvib,
Kapalaklarni quvib,
Mayli, endi yomg‘irda,
Qolib ketsak ham ivib...

Shabboda esar g‘ir-g‘ir,
Kulardik “qiqir-qiqir”.

Bahorjon, ishon, seni
Sog‘inib ketdik, axir.

Kel, yomg‘irlar totida
Yo shamol qanotida
Go‘zal fasl yo‘q senday
Odamlar hayotida...





**Dilobarxon
Abdulfattohova
9-sinf o‘quvchisi**

DAFTARMI YOKI KAPTAR

Kechagina do‘kondan
Sotib oldim daftarcha.
Daftar emas go‘yoki,
Moviy jajji kaptarcha.

Daftar desam suvday pok
Yozuvi ham xati yo‘q.
Quvontirar ko‘zlarim
Kaptar desam pati yo‘q.

CHUVALCHANGGA MASLAHAT

Kichik do'stim chuvalchang
Senga zo'r bir maslahat.
Gaplarimni eshitib,
Xafa bo'Imagin faqat.

Hayratdaman, nahot sen
Yerni hazm qilasan?
Agar topsang loy, tuproq
Shunda bazm qilasan.

Lekin shuni unutma,
Ko'p chiqmagin sovuqqa.
Gar ehtiyot bo'lmasang
Yem bo'lasan tovuqqa.

MUSHUKXON

Oydin tunda mushukcham
Yo'qoldi bir kun.
Boqsam jomga termilar
Chiqarmasdan un.

Olmas edi u suvdan
Aslo ko‘zini.
Demak, ko‘rishga chiqqan
Aksin o‘zini.

YOLG‘ONCHI TULKI

Nomimdir ayyor tulki
Xo‘b sho‘xliklar qilganman.
Tutib olib juda ko‘p
Tovuq patin shilganman.

Qornim to‘qdir doimo
Kezaman shod qishloqni.
Bilsang, qarg‘a og‘zidan
Obqochganman pishloqni.

Ishlataman aqlimni
Qoldirmaslik uchun iz.
O‘sha mashhur ertakda
Bo‘g‘irsoqni yegan biz.

AYBDOR HARFLAR

Maktabning eng qiziqchi
O‘quvchisi Iristoy.
Ismi ham ajoyibdir
Shunga bo‘lsa hoynahoy.

Bizning shovvoz har doim
Xursand qilar barchani.
Aytar qiziq gaplardan
Ko‘ngil olar charchamay.

Shu desangiz bir kuni
Ustoz diktant yozdirdi.
Topshirib u bиринчи
Ko‘pni esdan ozdirdi.

Keyin ustoz daftarin
Tekshirishni boshladi.
Xafa bo‘ldi chunonam
Go‘yo ko‘zin yoshladi.

Ertangi dars ustozni
Tishga qo‘yib tishini.

So‘zlay ketdi bir boshdan
Uning qilgan ishini.

Kulib turib Iristoy
Sababini ta‘riflar.
So‘ng dedi u: “Yozuvda
Adashibdi harflar”.

Bunga barcha o‘quvchi
Hatto ustoz lol qoldi.
Qiziqchimas u endi
Yolg‘onchi nomin oldi.





**Ro'zixon
Qurbonova**
9-sinf o'quvchisi

**USMON NOSIR SHE'RIGA
NAZIRA**

“Tinimsizdir yolg‘iz shabada
Maysalarning sochi silkinar.
Mana hozir chirqirab turgan,
Parrandalar, qushlar ham tinar”.

Yerga tashrif buyuradi shom,
Tutib qora rangli jomini.
Avval yerga, keyin osmonga
Yozmoq uchun tunning nomini.

Muazzinning bo‘g‘zidagi – nay,
Nola bo‘lib taralar azon.
Bu ilohiy sadodan sarmast,
Namozshomgul gullaydi shodon.

MUHABBAT

*O, muhabbat,
ko ‘rsat qiyofang...*

Zulfiya

Niholman-u o‘sganim sari
Yuragimga to‘lmoqda ohang.
Kelmoqdami yoxud xabaring,
O, muhabbat, ko‘rsat qiyofang...

Onam bo‘lding ko‘z ochganim chog‘,
Otam bo‘lding keyin misli tog‘,
Ko‘rgim kelar yuzingni shundoq,
O, muhabbat, ko‘rsat qiyofang...

Bobom bo‘lding, buvim – mehribon,
Parvonasan boshimda har on,

O, muhabbat, o, muhabbatjon,
O, muhabbat, ko‘rsat qiyofang...

Akammisan, singlimmi bolday,
Tovlanasan shams-u hilolday,
Dugonammi yuzlari olday,
O, muhabbat, ko‘rsat qiyofang...

Tovlanasan ming bitta rangda,
Xush nasimlar esadi jonda,
Menga bugun, ayni shu tongda,
O, muhabbat, ko‘rsat qiyofang...





Sarvinoz
Olimova

9-sinf o‘quvchisi

BAHOR YOMG‘IRI

Shitirlagan g‘aroyib tovush
Torttiradi ruhimni sergak.
Pichirlaydi yomg‘irjon – suvqush,
Uyg‘otadi men qizni tergab.

Yuzlarimni tutaman unga,
Erkalanib deyman: “Yuvib qo‘y”.
Men ham Navro‘z atalgan kunga
Gulday bo‘lib ko‘rsatayin bo‘y.

TO'RTLIK

Sollantirib sochlарimni suvgа solmishdir sabo,
Sirlарim соchmoqchiday soy suvida suzmish
sado.

Subhidamda siz so'rang sirli sururning sozidan,
Sarvinozning suhbatiga singganin sohir safo.

BULUTLARDAN ILTIMOS

Bulutlar, qizg'anmang mendan oyimni,
Hali to'ygani yo'q ko'zlarim unga.
Siz to'sib qo'ysangiz gulchiroyimni,
Kim yorug'lik sochar qorong'i tunga?

Bulutlar, qizg'anmang mendan oyimni,
Go'zalim samoda jilvalar qilsin.
Yo'qsa chaqiraman men Xudoyimni,
O'zi bir chiroyliadolat qilsin.

Toki bir hukmni qo'llasin nafis,
Mening yuragimdan chekinsin qiyonoq.
Qorayib oyimning yuzin to'smang siz,
Ro'molga aylaning, yarashib oppoq...



**Ernis
Abdimannapov
9-sinf o‘quvchisi**

ONA

Betin yuragimga sanchilar tikan,
Ko‘zlarimdan oqar tomchi-tomchi qon.
Hamma shod-u xurram o‘ynab yurganda,
Men kimning o‘rniga to‘layman tovon?!

Eski boshmog‘imdan suv o‘tsa o‘tar,
Mayli qarg‘ayversin qarg‘ish-chi o‘gay.
Men egsam boshimni g‘amlarga emas,
Ariq labidagi yalpizga egay.

Ona, javob bering unsiz bo‘lsa-da,
Bilaman jarlikning uyog‘idasiz.
Men hali chizmagan mehr rasmining,
Mo‘yqalam ko‘rmagan bo‘yog‘idasiz.

Yana tong otmoqda sog‘inch sadosi
Yurakda hech o‘lmas qasida bo‘ldi.
Quvonchni unutgan baxtsiz bolalik,
Ko‘ngil ko‘chasida tug‘ilmay o‘ldi...

Ona, men yangitdan yashayman endi
O‘zligin topganday daydi meteorit.
Qishloqdan ketaman tong yorishmasdan,
Va qayta tug‘ilar yo‘qolgan umid.





**Mahbuba
Hayitboyeva
9-sinf o‘quvchisi**

QALAM

Qalamginam, sen yaralgan dam,
Oq qog‘ozga tushdi ezgu so‘z.
So‘zlarga ham, tuyg‘ularga ham,
Sening o‘zing bo‘la olding do‘st.

Niyatim shu – faqat va faqat,
Ko‘paymasin dildagi alam.
Qalbimdagi mehr va shavqat,
Boqiy bo‘lsin sen bilan, qalam!

YOMG‘IR

Yuragimni quvonchga belab,
Shoda-shoda yog‘ardi yomg‘ir.
Menga namchil salomlar yo‘llab,
Derazamdan boqardi yomg‘ir.

Yuragimning eshididan jim,
Dilxonamga to‘kiladi u.
Agar zamin bo‘lsa yuragim,
Mehr bo‘lib ekiladi u.





**Rayhona
Nurmuhhammadova**
8-sinf o‘quvchisi

ONAM

Mehribon, munis-u mushfiq, g‘amguzorimsiz,
onam,

Sal uzoq ketsam, yo‘limga intazorimsiz, onam.

Qildingiz odam meni bir parcha etdan o‘stirib,
To hanuzkim menga ilhaq, zor, bedorimsiz,
onam.

Baxtiyordirman hayotda, chunki siz borsiz
hayot,

Borki biz farzandlaringiz, baxtiyorimsiz, onam.

Siz qizingizdan xavotirlar olib kuymang sira,
Qayda bo‘lmay, qayda yurmay dilda borimsiz,
onam.

Qo‘rmagay Rayhon qizingiz qahratonlar
qahridan,
Boisi – siz bor yana, mangu bahorimsiz, onam.





**Dilangez
Bahronova**
9-sinf o‘quvchisi

SHE’RLARIM

She’rlaringiz o‘qiyman hamon,
Misralardan o‘zimni izlab.
Topolmayin halakman, tamom!
Siz yozasiz boshqani sizlab...

Nafismish u, Xudoga qasam,
Atirgulni tengim ham demas.
Bu qiz o‘zim deya o‘ylasam,
Men unchalik chiroqli emas.

Qo‘g‘irchoqlar ishqibozisiz,
Qoshi kamon, ko‘zi – qora tim.

O‘zingiz ham barno emassiz,
Lekin sizni chiroyli sevdim.

Har bir baytim sizga atalgan,
Satrlar ham sizgadir oshiq...
Bardoshimga qarsaklar chalgan,
Oshni suyib, kuygan osh qoshiq.

She’rlarimga sodiq bayotim,
Xayr, endi sizni demasman.
Aldagandim, mening hayotim
Sizsiz bo‘lsa, baxtsiz emasman.





**Madinabonu
Abdusalomova
9-sinf o‘quvchisi**

ONALAR YOLG‘ONCHIMI?

Egningda libosing yaltirar, qara
Qorning to‘q, usting but, emassan yupun.
Onang-chi, ko‘nglida ming dard, ming yara
Yashab yuribdi-ku kamoling uchun.
Birda bemor bo‘lib yotganda arang
Savol berib ko‘ring onangizga siz.
Hammasin unutib, tikilib so‘rang:
Yaxshimisiz?..
Shunda ham yostiqdan ko‘tarib boshin
“Yaxshiman, xavotir olma”, – deydi u.

Yurakka tukkancha sabr-bardoshin
Na kiyib, na to‘yib ovqat yeydi u...
Yo‘q, yo‘q, yo‘q!
Onalar aldamaydi hech
Yurakka singadi bu fikr asta.
Qo‘limda tugunni ko‘tarib shu kech
Kiraman, onamlar yotibdi xasta.
“Onajon, men keldim, erka qizingiz
Sizni xushnud qilish istadim bugun.
Siz uchun atalgan ishoning, ona,
Qo‘limda tutganim, shu jajji tugun...
”Ko‘zimda yosh bilan shu bir lahzada
Onamni sinchiklab, zimdan kuzatdim.
Qo‘llari qaltirab ocharkan uni,
Ichidan qip-qizil olma uzatdi.
Onalar yolg‘onchi bo‘lar, bilsangiz,
Ularning yolg‘oni chin emas hech ham.
Qo‘lida bo‘lsa ham eng so‘nggi noni
Shuni ham siz bilan ko‘radi baham.
“Qornim to‘q, shuni sen yeyaqol, bolam!”

BO‘G‘IRSOQ

Men bo‘g‘irsoq, bo‘g‘irsoq
Oydan shakl olganman.
Qo‘sish qaylab chalaroq
Artist bo‘lib qolganman.

Yo‘llarimda uchradi,
Goho ayiq, goh bo‘ri.
Aql bilan tutdim ish,
Yetolmadi eng zo‘ri.

Ammo bitta haqiqat
Meni doim turtkilar.
Bo‘lmasangiz gar hushyor
Yeb ketarkan tulkilar.

SIGIRLARGA ARZNOMA

Ovqat yeb ham to‘ymaysan,
“Ovqat” deb ham to‘ymaysan,
Baqirishni qo‘ymaysan,
Gapdon, ola buzog‘im!

Jimlik nima, bilmaysan,
Atrim hidin suymaysan,
She'r yozishga qo'ymaysan,
Injiq, qora buzog'im!

Ariq suvin ichmaysan,
Issiq joydan kechmaysan,
Arqonni hech yechmaysan,
To'polonchi buzog'im!

Aqling kirsa, mayliga,
Chiqamiz dasht sayliga!..





**Tasanno
Abduvahhobova
9-sinf o‘quvchisi**

DUNYONING ISHLARI

Qora bulut qora emas,
Uning qalbi pok, oppoq.
Axir, ulkan yulduzlar ham
Ko‘rinadi mittiroq.
Atirgulni go‘zal demang,
Bor bandida tikanlar.
Ul makkora tulkini ham
Ba’zan yaxshi deganlar.
Baland tog‘lar yerda turib,
Orzu qilar samoga.
To‘tiquish ham ming urinib
Taqlid qilar navoga.

Ba'zilarning so'zlarida
Yolg'on hamroh umrbod.
Bu dunyoning ishlaridan
Osmon chekar dod, faryod.
Xudojonim, bu ishlarda
Bizlarga bo'lgin panoh!
Zaminimni pok saqlagin,
Mehribonim, ey Alloh!

TINCHLIK

Ilon izi qolgan bo'm-bo'sh so'qmoqqa
Quyosh tinchlik bo'lib sochadi nurin.
Maysalar uyg'onar uzoq g'aflatdan,
Yerga asta qo'yar labdagi durin.
Egilgan daraxtlar ko'tarib boshni
Hayotdan zavq olar bo'y cho'zib tinmay.
Mehnatkish chumoli har tomon yurib,
Ter to'kib ishlaydi umidi sinmay.
Osmon yig'lamaydi, bugun musaffo,
Qushlar haqiqatni qo'rqlmay kuylaydi.
Tinch bo'l, urushlardan uzoq tur, xalqim,
Har bitta farzanding seni o'laydi.



**Azamatjon
Akramov
9-sinf o‘quvchisi**

TONG NAFASI

Sovuq, izg‘irin...
Ming afsus,
Tongni kutar sovuq yuraklar.
Labda qon yo‘q aytmoqlikka so‘z,
Hatto tashlab ketdi laylaklar.

Shunda muhabbatga asir yurakning,
Asta ochiladi zirhli qafasi.
Shunda uyg‘onadi hayotbaxsh tuyg‘u,
Qalbga malham bo‘lar shu tong nafasi.

VATAN

Vatan – peshonamni silab-siypalab,
Asrab-avaylagan, ey onajonim.
Sendan ortig‘ini qilolmam talab,
O‘zingsan umidim, o‘zing vijdonim.

Vatan – onajonim issiq kulchasi,
Bag‘rimni to‘ldirgan shirin rizqimsan.
Senga hasad qilgan bordir qanchasi,
Sen esa kamtarsan, beg‘ubor jimsan.

Vatan – himoyangda o‘g‘lonlaring shay,
Seni asramoqlik merosdir, shondir.
Mo‘minlar orzusi bo‘lgan jannatday
Beqiyos vatanim O‘zbekistondir!





**Guljora
Hoshimjonova**
9-sinf o‘quvchisi

ISTAK

Ko‘zlarim yumilgan, tuyg‘ular unsiz,
Qulog‘imda giryon yomg‘ir tovushi.
Yoki bu yomg‘irmas, ko‘z yoshimmikan?
Bu havoning emas, dilning sovishi.

Sochim o‘ynayotgan mayin shamolmi,
Balki bu qo‘llarim uni ezyapti?!
Tolalar hilpirar go‘yo maysazor,
Balki dardlarimni u ham sezyapti.

Sohilsiz qaroqdan toshadi ko‘z yosh,
Kiprigim namiqqan, qorachiq bejo.

Xayolim – parishon o‘yim – to‘zg‘igan,
Tangrim, istagimni aylarmi bajo?!

Kuzgi kurtak bo‘lsam yo qishki lola,
Va baxtning ko‘ksiga joylashib olsam.
Falakdan poklikni olib tushguvchi
Qaniydi, yomg‘irga aylanib qolsam...

SOHILDAGI SATRLAR

Sohildagi satrlarga termilaman,
Jim tinglayman bizga tanish qo‘shiqlarni.
Hatto dengiz mavjlar urib ketar ko‘rsa,
Bizdek ko‘zi chaqnab turgan oshiqlarni.

Sen kelasan, asta tutib qo‘llarimga
Gulgung, go‘zal moychechaklar – ko‘nglimizdek.
Va chizasan sho‘x dengizning sohiliga
Ikki so‘roq birlashadi – ko‘ksimizdek.

Kechikkanim bilsam hamki, talpinaman,
Ko‘p eslabsan birga kechgan xotirlarni.
Ko‘zimda yosh hayajonda o‘qir edim
Dil izhoring – sohildagi satrlarni...

DOVUCHCHA

Yegim kelar dovuchcha,
Qani bo‘lsa bir hovuch.
Istak shu: boqqa bordim,
Orzu chorlar: “Meni quch!”

Daraxt shoxidan ushlab,
Sanadim bir, ikki, uch.
Va silkita boshladim,
“G‘o‘ralar, men tomon uch”.

G‘azablangan daraxtdan
Tushdi kattakon g‘o‘ra.
Meni mo‘ljalga olib,
Boshimni qildi g‘urra.

UZUM BAHONASIDA...

Yiltir-yiltir nozlanib,
Tovlanib turar uzum.
Yonoqlari qip-qizil
Ko‘rib kelardi uzgim.

“Chilgi” – chirikdek, lekin
“Husayni” – Hasan, Husan.
“Rizamat ota” – boshliq,
Yeging keladi ko‘rsang.

Men bu gaplarim bilan
O‘zni ovutmoqchiman.
Qo‘lda “miltig‘im” bilan
Chumchuqni otmoqchiman.





**Farangizbonu
Muhammadaliyeva**
9-sinf o'quvchisi

CHO'QQI

Yillar bizni kutar, yo'llar kutadi,
Goho yiqilasan, goho turasan.
Sen uchun shunchalar imkoniyat ko'p,
Faqat o'qisang bas, shijoat bilan.
Bilimdan zina qur, toqqa yetishgin,
Umringni yoritsin kitob nurlari.
Qalbingga yozilsin ushbu yozuvlar:
“Olg'a, olg'a, nurli kelajak sari!”
Samolar eshitsin sening nomingni,
Cho'qqiga chiqmasang, qirga tirmashgin.
Tushkunlikka tushma, ortda qolsang gar,
Inson bo'lishing ham, albatta, qiyin.



**Sarvinoz
Mahmudova**
9-sinf o‘quvchisi

BAXT SHAHRI

G‘am-u dardlarimni unutib ketgum,
Dengizning havosi esgan shaharga.
To‘p-to‘p chag‘alaylar chug‘ur-chug‘uri,
Albatta, uyg‘otar meni saharda.

O‘sanda ko‘zimdan oqmas tomchi yosh,
Yurakning tubida quvonch yashirin.
Marmar kechalarda baxtning nafasi,
Ba’zan dardlashamiz, aytadi sirin.

Mehrdan yaralar har narsa unda,
Shodlikning bahosi erur dur, gavhar.
Albatta, yoningga boraman ishon,
Meni kut, baxtlarga yo‘g‘rilgan shahar.

YOMG‘IR

Osmon gulduraydi, yog‘adi yomg‘ir,
Kuz faslin elchisi berar daragin.
Samo bag‘rin tilgan har bitta tomchi
Kuz bilan bog‘laydi mening yuragim.

Osmon gulduraydi, yog‘adi yomg‘ir,
Tozalar dunyoni g‘ubor, gardlardan.
Faqat baxsh etadi olam shodligin,
Qalbni xalos qilar g‘am-u dardlardan.

Osmon gulduraydi, yog‘adi yomg‘ir...





**Ro'zixon
Muhammadova**
9-sinf o'quvchisi

OPA

Opa, ko'rgim keldi yana qishloqni,
Bu shaharda yashash bunchalar qiyin.
Quyoshin qidirgan osmondek go'yo,
Seni sog'inyapman kun o'tgan sayin.

Opa, eslaysanmi sen ham men kabi
Onam yopgan issiq kulcha nonlarni.
Ariqdan olmalar terib yer edik,
Endi sog'inyapman o'sha onlarni.

Opa, esingdami majnuntollardan
Tolpopuk yasarding atay men uchun.
Bugun sen yasagan tolpopuklardek
Asta yuragimga bog‘lanar ochun.

Opa, uyimizning devorlarida
Baxtni qo‘shib chizgan suratlarim bor!
Sen va men, bolalik, orzularimiz –
Bizning yoshligimiz shunday beg‘ubor, Opa!!!





**Shahlo
Safarova**
9-sinf o‘quvchisi

BESH YOSHIMDA

Besh yoshimda edim beg‘ubor.
She’r aytishni ko‘rardim yaxshi.
Yoqar edi turfa gullarning
Gilamlarga tikilgan naqshi.

Savollarga berolmay javob,
Qovushtirib ikki qo‘limni.
Besh yoshimda bilmasdim, hatto,
O‘ng qo‘limdan farqi so‘limning.

Shodliklarim sig‘magan dunyo,
Mening uchun edi juda keng.

Gado bilan shohning o‘rni ham
Besh yoshimda bo‘lgan edi teng.

Yulduzlarga tinmay termilib,
Yashar edim ertaklarimda.
Gullolalar terib kelardim,
Dasta-dasta etaklarimda.

Salkam o‘n besh, o‘n to‘rtda yoshim,
Bolalikning kitobin yopdim.
O‘sha erka besh yashar qizni,
Suratlardan axtarib topdim.

QISHLOG‘IMGA XAT

Qizingmanmi o‘zi, bilmadim,
Sen haqingda yozmabman bir she’r.
Bu shildirab oqqan soylaring
Endi meni kimning qizi der.

Ko‘z yoshlarim oqqanda tinmay,
Daraxtlaring ro‘molcha tutgan.
Shodliklarim solib ko‘nglimga,
Dardlarimni ichiga yutgan.

O'sha dala, o'sha bepoyon
Ufqlarga qarardim tinmay.
Ona qishloq, bag'ringdan ketdim
Xato qilib qo'ydim-da bilmay.

Tushlarimga kirar bog'laring,
Seni o'ylab chiqdim, og'rinib.
Mana, yana senga xat yozdim
O'shal sokin tunni sog'inib.





**Nodirabegim
Saidjonova
9-sinf o‘quvchisi**

MEN BOLAMAN

Men bolaman, dunyo dardlarin
Quvonch, baxtga alishib yurgan.
Qo‘g‘irchog‘im olib qo‘yishsa,
Yig‘lamasdan jilmayib turgan.

Men bolaman, bolalik haqqi
G‘amlar menga yarashmas zinhor.
Yuragimda quvonchga o‘xshash
Baxtga moyil qancha gaplar bor.

Men bolaman, sofdir, beg‘ubor
G‘o‘ra bilan do‘sst qilgan tuzni.
“Arra” degin demangiz aslo
Aytolmayman bu qiyin so‘zni.

Men bolaman, har nega qodir
Hali ko‘pdir yurakda kuchim.
Bor ilmimni saqlab qo‘yganman
Meni kutgan kelajak uchun.

QULOQSIZ

O‘zi shirin judayam,
Qancha yesam to‘ymayman.
Muzlatkichning ichida
Yolg‘iz latib qo‘ymayman.

Oyim aytar: “Shokolad
Zararlidir ko‘p yeish.
Oxir voylab qolasan,
Qurtlab ketsa agar tish”.

E’tibor ham bermadim
Bu qandayin tanbeh deb.

Maza qilib yashadim,
Shokoladdan to‘yib yeb.

Oyijonim so‘zlarin
Hech qulqoqqa olmadim.
Bugun qari kampirday
Biror tishim qolmadi!

QOVUN

“Qovun” deb yerga urmang,
Men ham totli yemakman.
Ba’zilarga sevimli,
Ba’zilarga ermakman.

Lek nolimam umrimdan
Polizda zo‘r yotaman.
Qadrdon do‘st-u oshnam
Tarvuz-la gap sotaman.

Xullas, nimayam derdim,
Mayli yaxshi qolingiz.
“Qovun” deb kansitganning
Jag‘iga bir solingiz.



*Mushtariybona
Sulaymonova*
9-sinf o‘quvchisi

KETAMAN

Ozorsiz bir makon izlab,
Qalbimning qiymati qilchamas, bildim!
Mehrim ham qoladi yetimday bo‘zlab
Asli sizni suyib, ko‘p xato qildim.

Ketaman,
Quvonchim qoldirib sizga,
Baxtli kunlarimni, xursand damlarni.
Parcha-parcha bo‘lgan bu yurak menga
Quchoqlab ketaman alamlarimni.

Ketaman,
Yoqmadim sizga do'stijon,
Aslo tilga olmang tuyg'ularimni.
Yuragim og'ridi demangiz zinhor,
Berkitib ketaman kulgularimni.

BEDIL

Xayolim osmonda uchgan dilqushim,
Meni quvonchlarga to'ldirgan baxtlar.
Bir sado kutmagan ko'ngilda hushim
Sening so'zing kabi turgan daraxtlar.

Ne kunki, jilmayib turganda ohim,
Sening-chun aytilgan so'zlarda titroq.
O'zing qarog'imda turgan gunohim,
Gullagan daraxtda eng yashil yaproq.

Azobsan, bir dardsan ko'chalarimda,
Gavharlar misoli tizilgan jodu.
Tush bo'lib turibsan kechalarimda,
Shafaqni yoritar eng yorqin yog'du.

Alamsan. Yutaman alamlarimni,
Ko‘yingda titragan men ko‘ngli gado.
Har kun kezmoq istab olamlaringni
Qush qilib yaratса bo‘larkan Xudo.

Atrofni o‘ragan xazon yaprog‘i,
Sog‘inch yomg‘irlari dildagi g‘ubor.
G‘amgin kuylar bilan asli bu kuzni,
Biz uchun atagan hikoyasi bor.





**Nurzoda
Bahodirova**
10-sinf o‘quvchisi

ERKIN VOHIDOV

Quyosh ufqqa qo‘yar boshini,
Shoir qalamiga tutashar qog‘oz.
Oy taragan paytda sochini
Ilhom parilari etadi parvoz.

Bir she’r tug‘iladi olamga peshvoz,
Undan ketar yiroq har qandayin yov.
G‘animlarga qarshi so‘zlar sipohi
Lashkar qo‘mondoni – Erkin Vohidov.

KUZ

Kuz, yig‘lamsiragan qorako‘z mudroq,
Tilla taqinchoqlar taqqan bir juvon.
Botguvchi quyoshdan so‘raysan najot
Ma’suma xayoling ezg‘in, parishon.

Bezillab ketasan hayotingdan ham
Hech qocha olmaysan yo‘llaring tuman.
Dardli ko‘z yoshingdan ivib, namiqqan
Qalbingni bag‘rimga bosib yig‘layman.





**Oyatulloh
Normuhammadov**
10-sinf o‘quvchisi

SARVQOMAT DILBARIM

Quvonchdan porlaydi jajji yulduzlar,
Jilmaygancha boqar sohil bo‘yiga.
Har dam ikki oshiq kecha-kunduzlar
Visol dardi bilan yetmas o‘yiga...

Rangsiz xotiralar sarlavhasiga
“Chaqmoq yulduz” deya nom qo‘ygan bir qiz.
Sarguzashtli hayot peshtaxtasida
Tuyg‘ular mavj urar, ummon qirg‘oqsiz.

BOLALARGA QOLIB KETMASIN!

Bola ko‘nglin podsho deydilar,
Podshohlardan ulug‘roq asli.
Tilla emas, baxtlar-la bezar
Tushlarida qurilgan qasrin.

Hayot suvlar kabi oqizib,
Shodliklarni olib ketmasin.
Bu dunyoning tashvishi, g‘ami,
Bolalarga qolib ketmasin...





**Kamola
Ma'rupo娃**
10-sinf o'quvchisi

NAVOIY G'AZALIGA TAZMIN

Bizing shaydo ko'ngul bechora bo'lmush,
Muhabbatda gado avvora bo'lmush.

Ki she'r ahli xuni gulgun siyohdek,
Malakning hajrida favvora bo'lmush.

Takabbr mohning poyida ko'ngul,
Talanib itig'a sadpora bo'lmush.

Qalam yozmoq uchun ta'rifi naxlin,
Jununlik dashtida sarsona bo'lmush.

Qamar siymo yuzin ochg'uncha, Oshiq,
Hayotim zulfidek tim qora bo'lmush.



*Marjona
Xoltoyeva*

10-sinf o‘quvchisi

**KO‘KLAMNI SOG‘INGAN SHOIR
QIZINGMAN**

Kamalak chiqmoqda samo yuziga,
Qaldirg‘och qanoti misoli qalam.
Ko‘klam oro berar bu kun o‘ziga,
Bahor ko‘ylak bichsa hayratda olam.

Yalpizlar ohista nish urar bugun,
Doshqozon ichida qaynar sumalak.
Borliqni baxt isi quchadi bu kun,
Momolar qiladi ko‘p ezgu tilak.

Quyoshni sog‘ingan kimsasiz bog‘lar,
Seplarni yoyadi, yoyadi borin.
Uyg‘otib dillarni, mudroq hislarni
Qalbimizni yashnat, aziz bahorim!

VATAN

Ufqning yuragi lovullagan o‘t,
Ul o‘tki qalbimda olov degani.
Erka shabbodalar raqs etgan onda,
Men seni angladim, ona Vatanim.

Yalpizlar har bahor intilar suvga,
Dimog‘im chog‘ bo‘lar, yayraydi tanim.
Ko‘klamning har olgan nafaslaridan,
Men seni angladim, ona Vatanim!





**Durdona
Baxtiyorova**
10-sinf o‘quvchisi

MAKTUB

Shukur, yana tongni ko‘rish nasib etdi.
Deraza tashqarisida, osmonda bulutlar shunday go‘zal manzara kasb etibdiki, ko‘rgan insonni beixtiyor qa’riga tortib ketadi, shirin xotiralari esga tushadi.

Men o’sha pat-pat pushtirang bulutlar orasidan kulib chiqayotgan quyoshda sizni ko‘rdim, ona. Tong osmonini ko‘rib mast bo‘lish mumkinmi, deb so‘rasalar, shubhasiz, “ha” deb javob bergen bo‘lardim. Maydondagi yam-yashil maysalar, daraxtlarning yangi, shudringda yaltiragan barglari shabadada shunday serjilo tebranadiki...

Atrofimizdagi qishloq hovlilaridan ahyon-ahyon-da xo‘rozlarning qichqirgani eshitiladi.

Har zarra meni sog‘inishga undayapti!..

Sizning ham umrbod quyoshga aylanib qolishningizni istayman. Qahratondan eson-omon chiqib olganlar quyoshni ko‘rib quvonsalar, sizni ko‘rganimda men undan-da ziyodroq quvonaman.

Ona, siz ko‘p aytardingiz, atrofingdagilarning xatti-harakatlaridan xulosa chiqar, turli fe’ldagi insonlarni kuzat, bu senga hayotni anglashda as-qatadi, deb. Men shunday qilyapman. Qop-qora tundagi to‘lin oy, tikanlar orasidagi atirgullar, sahrodagi yaproqlar va yovuzliklar orasidagi yagona ezgulik endi o‘zgacha ko‘rina boshladи.

Yomondan ham yaxshilik topoldim, ONA!

Siz sabab...





**Nozima
Ibrohimova**
10-sinf o‘quvchisi

MUALLIM

Doskaga mavzuni yozib tushuntirayotgan Shohista opaning xayoli ariq oldida o‘ynayotgan sinfidagi o‘quvchilari bilan band edi.

Ora-orada derazaga qarab qo‘yar, “Buncha vaqtli kelmasa bular, ishqilib biror falokatni boshlashmasin-da”, deb o‘ylardi.

Ko‘ngli sezgan ekanmi, o‘quvchisi Dilshoda beton ariq yonida o‘ynab yurib yiqilib, dodlab yubordi. Shohista opa kimdir boshiga bir tushir-gandek cho‘chib yugurdi, qanday yetib borganini bilmay qoldi. Ichi achigancha birinchi yordam

ko‘rsatib, uyiga jo‘natib yubordi. Qizning qo‘li singan ekan...

Ertasi kuni esa ona tili darsida suv quygan-dek jumjut sinfni eshikning vajohat bilan taqilla-shi buzib yubordi. Muqaddas opa – Dilshodaning onasi yuzi bo‘g‘riqib, hansirab ichkari kirdi. Mu-allimga yuzma-yuz qarab:

– Nega o‘quvchilaringizga qaramaysiz?! – deya baqira ketdi.

Dilxonasi vayron bo‘lgan o‘qituvchi arang:

– Uzr, o‘zingiz ham erta jo‘natmang-da, hali yosh bo‘lishsa, – deya javob berdi.

– Xohlagan vaqtimda jo‘nataman, sizning bu bilan ishingiz bo‘lmasin! – o‘shqirdi ona. – Sal mas’uliyatli bo‘lsangiz edi, bolaga qarardingiz!

Shohista opa boshini egib turar, qalbida og‘ir hislar tug‘yon urardi. So‘ng boshini ko‘tarib, Muqaddas opadan: “Dilshoda yaxshimi?” – deb so‘radi...



**Latofat
Sotvoldiyeva**
11-sinf o‘quvchisi

BOLALIK

Yashashni yosh boladan o‘rgansa arziydi. Hech sababsiz tabassum qiladi; yiqilsa, darhol o‘rnidan turib ketadi; bir narsani xohlasa, yetishmaguncha chekinmaydi; qiziqtirgan narsasini anglab yetmagunicha uni hech narsa to‘xtata olmaydi; aslo qo‘rquvni bilmaydi; urishib koyisangiz ham, xafa bo‘lib, gina qilmaydi, darhol unutadi. Mana, bahor nafasi urib turibdi. Bola-ligimizda kapalak bilan gavjum bo‘lgan gulzor yana o‘scha holatda. Hali bu qanday jonzot ekani ni bilmasa-da, ortidan qolmayotgan Sardor ona-

sining oldiga yetganida to‘xtadi. Keyin qiziqib so‘radi:

– Oyijon, bu nima, farishtami?

Ona og‘iz ochishga ham ulgurmadi-yu, opasi Go‘zal kelib, gap qotdi:

– Shuni ham bilmaysanmi? Axir, bu...

Shunday deb atrofiga qaradi: ukasi yo‘q. U kapalak ortidan ergashib ketib qolibdi.

Bir payt u “farishta”ni tutib oldi:

– Opa, qarang, qanotlari chiroyli ekan-a?!

...Bolaligimizda kapalakni tuta olgandik, xo‘s, hozir bolaligimizni tutib qola olamizmi?





**Mohinur
Lutfullayeva**
11-sinf o‘quvchisi

OSMON GULDURAYDI

Ko‘kdan tushgan tomchilar kichik bo‘lsa ham ko‘pligidan hali asfalt qilinmagan hovlini ko‘lmakka aylantirib yuborgandi. Umida tashqariga chiqqanida bu holatni ko‘rib biroz ijirg‘andi-da, so‘ng musofir yurtlarda yurgan dadasi yodiga tuшиб ko‘zlariga yosh to‘ldi, chiqib ketdi “Astag‘-firulloh” deb xo‘rsinib qo‘ydi. Ko‘lmakni kalishi bilan kechib o‘tdi-da, hali bitib ulgurmagan oshxonaga yetganda hozir yuvgan oyoq kiyimini yana loy bo‘lganini bilib, g‘ashi keldi. Ularni sovuq suvda chayib uy tomon kirib ketdi. Suprada non yasayotgan

onasiga qarab “yomg‘irni yomon ko‘raman” dedi, so‘ng televizor tagiga yonboshladi. Xayolida non yopish uchun yana tandir oldiga borishini o‘ylab, yuragi bezillab ketdi. Televizorda qayerdadir bo‘layotgan urush haqida gap borardi. Urush manzaralarini ko‘rib eti jimirlab ketdi. Garchi dadasi boshqa, urushdan uzoqroq joyda bo‘lsa-da, u dadasi haqida o‘ylayverardi. Dadasi shu yerda yursa ham bo‘laveradi, lekin tirikchilik... Uylari hali bitmagan, kamchiliklari ko‘p. Bunga asfalt yo‘qligi misol.

O‘sha kuni osmon kechasi bilan gumburladi. Umida uxlamadi, uxlolmadi.

Tongda ko‘zлari qizarib televizorni yoqdi. Yana o‘sha kanal. Kecha shunda qolib ketgan ekan. Bir jurnalist, bir to‘da olomon. Reportaj shu voqeа haqida ekan.

Olomon “Urush tugadi!” deb baqirayotgan edi.



**Ruxshona
Oybekova**
10-sinf o‘quvchisi

SO‘NGGI YAPROQ

Erta tong. Nasibaning mактабга borishiga hamma narsa tayyor. U erinibgina o‘rnidan turdida, yuz-qo‘lini yuvib, nonushta qila boshladi. Onasi Halima ayaning yoshi bir joyga borib qolgan, yolg‘izqo‘l, buning ustiga farzandi yo‘q edi. Nasibani ikki yil burun mehribonlik uyidan olib, o‘n yasharligida boqib olgan. O‘z farzandidan ham ortiqroq sevardi, jonini ham ayamasdi. Ammo qaniydi qizi ham unga shunday mehr ko‘rsatsa, uni yaxshi ko‘rsa, buyurgan ishlarini qilsa, qaniydi!

Nasiba dasturxonadagi qovurilgan tovuq to‘la likopchani surib, do‘q qila boshladi:

— Men sizga bir gapni doim takrorlashim kerakmi, oyi! Buncha odamni xo‘rlayverasiz, xo‘rlayverasiz. Yomon ko‘raman sizni! — dedi-da, stulni itarib turib ketdi. Halima aya shu bugungacha bunday haqoratni eshitmagandi.

Yuzidan rang o‘chgan, ko‘zi emas, qalbi bilan osmonni larzaga keltirib uvvos solardi, go‘yo. Ba’zi odamlar, ya’ni g‘amgin odamlarda shunaqa bo‘ladi o‘zi: ko‘zlar emas, qalblar dod solib yig‘laydi. Halima aya ham shunday ahvolda edi. Uning qalbi shu birgina so‘zdan o‘q yedi, yaralandi. Ona go‘yo bir sabr daraxti edi, uning barglari sarg‘aya boshlagandi. U ham umrining daryoday oqib borayotganini qalban his qilsa-da, Nasibasini o‘ylardi-da! Ammo bugun bu holatni ko‘tarolmadi. Bunday og‘riqli zARBAGA dosh berrolmadi: yuragi bu dunyo bilan, Nasiba bilan xayrlashdi.

— Oyi, oyi! Sizga nima bo‘ldi?! Qo‘rqitmang meni, oyijon, sizni yaxshi ko‘raman, oyi...

Mehr daraxtining so‘nggi, eng nozik yaprog‘i uzilgandi...



**Ibodatxon
Nosirjonova
9-sinf o‘quvchisi**

BALIQ

Baliqcha charaqlagan oftobni suv ustidan ku-zatishni juda-juda istardi. U endigina tuxumdan chiqqan, shaffofligidan ichak-chovog‘i ko‘rinib turgani bilan hech narsadan qo‘rqmas, o‘zini ja-sur va kuchli his qilardi. Unga hamma narsa qi-ziq tuyulardi: onda-sonda uchraydigan yaproqlar ham, katta-kichik suv mavjudotlari-yu har xil chiqindilar ham. Ba’zida u ana shu chiqindilar-ning ichiga kirib olib, berkinmachoq o‘ynardi. Yana u doim qirg‘oqqa yaqin suzar, baliqchilar-ning qarmoqlaridagi ovqatni onasi har qancha ta-

qiqlasa ham yeb ko‘rgisi kelaverardi. Xullas, bu tinib-tinchimas o‘ziga bir baloni orttirib olmasa bo‘lgani edi.

Kunlar ortidan kunlar o‘tar, baliqcha ham ancha katta bo‘lib qolgandi. Ammo suv juda o‘zgargan, qandaydir iflos. Hech qayerdan ovqat topib bo‘lmaydi, keksa-yu yosh baliqlar sekin-sekin nobud bo‘la boshlagandi. Bu holdan hammaning ichiga g‘ulg‘ula tushib qolgan. Shunda baliq cha, balki bu suvdagi chiqindilarning dastidandir deb o‘yladi va bu haqda boshqalarga ham aytди. Lekin hech kim unga qulqoq solmasdi. Yana bir qancha vaqt o‘tgach suvda aslo turib bo‘lmay qoldi. Baliqlar galasi birvarakayiga bu yerdan qochishga intilardi. Ular shoshqaloqlik bilan qirg‘oqqa yaqin suzganlaridagina adashganini tushunishdi. Suv yuzasi baliqcha aytganday chiqindilar bilan qoplangan va hech narsani ko‘rib bo‘lmasdi. Baliqlar har qancha harakat qilishmasin bu yerdan chiqib keta olishmadi va bitta-bit-tadan halok bo‘lishdi. Baliqcha esa uzoq-uzoqlarga suzdi. Lekin tirik qolishga irodasi yetmadi. Uning mittigina tanasini bir qizcha tomorqadagi

ariqdan topib oldi. Qizaloqning u bilan o‘ynagisi kelar, ammo o‘ziga o‘xshagan odamlarning aybi bilan nobud bo‘lgan bu baliqcha endi hech qachon qimirlamaydi...

(P.S. Bu hikoya o‘zim bir vaqtlar ariqdan topib olgan baliqcha haqida. Uni tiriltirish uchun rosa harakat qilgaman, biroq bari besamar ketgan...)





**Gulسانамхон
Зикирова**
8-sinf o‘quvchisi

KO‘KLAM

Bu yil qish juda sovuq keldi. Oyim qattiq betob bo‘lib qoldi. Negadir uning kasali hech tuzalmadi. U bo‘g‘ilib-bo‘g‘ilib yo‘talardi. Har yo‘talganda nafasi og‘ziga tiqilib, aytishicha ko‘z o‘ngida xira halqachalar pirpirar edi...

Oradan bir qancha hafta o‘tib, yana ko‘klam keldi. Buni men tanasi bujur bo‘lsa-da, yaproqlari kapalakning qanotlaridek nimjon o‘rik gullaridan sezdim. Ularning ifori bepoyon ufqqacha taralar-di. O‘rik shoxlarida esa sayroqi qushlar. Ular o‘z tillarida chug‘urlashib, go‘yo tabiat kuyiga jo‘r

bo‘layotgandek. Tabiat mayin shabbodada uxlayotgan go‘dakning beshigi misol ohista tebranardi. Mayda shudringchalar yam-yashil maysalar us-tida raqsga tushayotganday. Ariqlarda sharqirab oqayotgan suv uyqusirab turgan yalpizlarning yuzini silab o‘tardi. Katta xarsangtosh yonidagi mitti sariq narsa xayolimni tortdi. Yugurib borib qaradim. Chuchmoma! Ha, ha, chuchmoma! Oyim bu gulni judayam yaxshi ko‘radi. O‘ylab o‘tirmasdan shartta uzib olib, onamga olib bor-dim. Men ham oyimning tuzalishini bahordan kutardim. Balki, ko‘klam o‘z hayotbaxshligi ila dardiga shifo bo‘lar...





**Dilzodaxon
Hamdamova**
8-sinf o‘quvchisi

IFOR

Tunning yarmi. Ko‘zim ketib qolgan shekilli, derazaning oldidagi tunchiroqni o‘chirmabman. Ayvonchaga chiqib, bobomning qo‘lidagi ajoyib bir nimaga ko‘zim tushdi. Yugurib borib uni qo‘lidan oldim. Aytgancha, bir odatim bor: qandaydir gulni yoki biror o‘simplikni olib ko‘rsam darrov hidlashga oshiqaman. Burnimning tagiga kelganda dimog‘imga xushbo‘yi urildi.

So‘radim:

- Bobo, bu qanday gul?
- E-e, bu gul emas, yalpiz.

– Iye, yalpiz shunaqa bo‘ladimi? Lekin hidi biram shirin ekan-ey! – deb gap ohangini cho‘zdim. Yuragimda qandaydir ishtiyoq paydo bo‘ldi.

Ertasi bomdod payti bobomning oldiga shaxdam borib, dedim:

– Bobo, men dalaga ketyapman.

– Iye, u yerda nima qilasiz, yana bitta o‘zingiz-a.

– Katta bo‘lib qoldim-ku. Kechagiday yalpizni topmasam bo‘lmaydi.

– Ana, ariq bo‘ylarini qarab ko‘ring!

– Qaradim, yo‘q! – deb ko‘zlarimni mo‘ltillatdim.

Uzoq termilishlardan keyin bobom ruxsat berdi. Tong yorishishi bilan oyog‘imni qo‘limga oldim-da dala tomon chopdim. U yerga yaqinlashganim sari sayroqi qushlarning chug‘ur-chug‘uri qulog‘imga xush yoqar, ariq bo‘yidagi yam-yashil maysalar o‘ziga tortar edi. Ammo men o‘sahiforni topolmay jonim halak. Bepoyon dala-ning o‘rtasiga borganimda quyosh ufqdan asta ko‘tarila boshladi. Osmonni qizil qilgan nurlar bilan quvlashgim kelardi.

Anhor bo'yidagi egilib turgan majnuntolning ko'lankasi ostiga yashirinib olgan tanish o'simlikka ko'zim tushdi. Borib qarasam... O'sha! Men qidirayotgan yalpiz! Topdim-u, uni uzib olishga ko'zim qiymadi. Bir quyoshga, bir unga qararkanman, maysaga o'tirgancha uni to'yib hidladim. Kechagi ifor dimog'imni qitiqladi.

Bu yerdan hech ketgim kelmasdi!..





**Dildora
Xolboyeva**

8-sinf o‘quvchisi

DEHQON AYOL

Kuz. Xazonrezgi. Paxta terimi tugab, dalalar-da dehqonlarning yig‘im-terim ishlari boshlandi. Bu yil kuzda yog‘ingarchilik serob bo‘ldi. Shu sababli dehqonlar biroz shoshib qolishdi. Ular-dan biri mahallamiz boshida yashaydigan Halima opa. U ayol judayam sabr-bardoshli. Eri ikki yildan beri kasal, ikkita farzandi bor. Qizi tur-mushga chiqqan, o‘g‘li hali maktab o‘quvchisi. Oilaning barcha yuklari shu ayolning zimmasida. Ertalabdan barvaqt turadi, bemor erining ovqatini tayyorlagandan so‘ng sigirini olib dalaga shosha-

di. Moli ham juda yuvosh, go‘yo nochor ayolni tushunganday, boshini quyi egib, jim ketadi... U necha yillardan beri mana shu sigirini sog‘ib kun kechirayotgan edi, negadir bu yil mol ham qarib qoldi shekilli, bola bermadi.

Halima opa bu yil fermer xo‘jaligidan yer olib yarmiga sabzi, yarmiga loviya ekib yetishtir-di. Buni qarangki, aynan shu yili loviyaning ham, sabzining ham narxi qimmat bo‘ldi. Halima opa ikkala hosilini ham yarmini sotib, yarmini olib qoldi, pulini eriga berdi, qolgan sabzini o‘raga ko‘mdi, loviyasini qopga solib, yerto‘laga olib tushib qo‘ydi. Bundan ko‘zlagan maqsadi – er-taga qishda nochor qolganda mana shularni sotib kun kechirish edi.

Ularning oilasi bu yilgi qishdan eson-omon chiqqib oldi...

Bahor. Kunlar ham uzayib, ham ilib qolgan. Lekin Halima opa hamon ertalabdan barvaqt tu-radi, bemor erining ovqatini tayyorlagandan ke-yin sigirini yetaklab dalaga shoshadi...



**Botirjon
To'ychiyev
8-sinf o'quvchisi**

MENING DO'STIM ROBOT

Dunyoda ilm-fan, kompyuter texnologiyasi rivojlangan paytda Sodiq ismli bir bola bo'lgan ekan. U unchalik ham o'qishga qiziqmas, lekin u robotlar yasash va ularning dizaynnini yaratishni xohlardi.

Kunlardan birida esa maktabga kelayotganda bir e'ltonni ko'rib qoldi. Unda shunday yozilgandi: "Robototexnika to'garagi iqtidorli va qiziquvchan bolalar uchun dushanbadan payshanbagacha soat 16:00 dan 18:00 gacha eshiklarimiz ochiq!"

Sodiq uyi tomon yugurdi va onasidan ushbu to‘garakka qatnashishiga rozilik oldi. Mana, haftanining birinchi kuni. Sodiq berilgan manzilga yetib bordi va o‘zini to‘garak rahbariga tanishtirdi. U mashg‘ulotlarga qatnab, yaxshi o‘zlashtirdi. Va nihoyat birinchi robotini yaratdi va unga Robo deb nom qo‘ydi. So‘ng, uni yoqib, aytdi.

- Sen Robosan.
- Men Roboman, – dedi robot.
- Men esa Sodiq, seni yaratgan insonman.
- Men Roboman, sen Sodiq.
- Ha, Sodiq. Endi bunday qilamiz: sen men ga uy vazifalarimni tayyorlashda yordamlasan.
- Albatta, yordamlashaman.

Shunday qilib, Robo dars qilishga unga yordamlasha boshladi-yu, Sodiqning ham o‘qishga qiziqishi tobora kuchayaverdi. Ammo nima bo‘ldi-yu, Roboni yo‘qotib qo‘ydi. Bundan u juda xafa bo‘ldi, tushkunlikka tushdi. Keyincharlik esa ko‘nika boshladi.

Yillar o‘tdi. U ulg‘ayib yaxshi kasbni egaladidi, farzandli bo‘ldi. Bir kuni o‘g‘li omborda

o‘ynayotib, bir narsaga ko‘zi tushdi va shunday dedi:

– Dadajon, bu nima?

Sodiq hayratlanib qarab turdi-da, o‘ychan javob berdi:

– Bu mening do‘stim, robot...





**Madinabonu
Abdusalomova
9-sinf o‘quvchisi**

BEDIL

Kampir naqsh solingan yog‘och ustunga manglayini berib, temir darvozaning sovuq panjaralariga ko‘zlarini tikib o‘tiribdi. Ammo o‘zi buni bilmaydi... Uning ochiq, lekin abadiyga so‘ngan ko‘zları faqat qorong‘ilikka o‘ralgan bo‘shliqnigina ko‘rishga qodir. Afsus... Nahot kampirning tilab-tilab olgan yolg‘iz o‘g‘li o‘z onasiga shu fayzsiz go‘shani ravo ko‘rdi?!

Yog‘och ustunning muzlagan tanasi kampirga o‘g‘lining sovuq va qor bosgan qalbini, oxirgi marta qulog‘iga chalingan aldamchi, ammo muloyim ohangini eslatardi. Eh, o‘g‘lining asl maq-

sadini bilishga kampirning ko‘zлari ojizlik qilma-ganida edi...

U bu yerga kelganda faqat qayergadir shoshilayotgan odamlarning qadam tovushlarini, g‘alati va yalingannamo ovozlarnigina eshitgandi, xolos.

Hozir esa... U biladi. Nima uchun o‘g‘li uni olib ketgani kelmayotganini aniq biladi. Noga-hon eshitib qolgan bir suhbatи kampirning yu-ragini yaraladi, balki uzoq yillik umidlarini ham yo‘qqa chiqardi...

— Men ketaman! Ketaman... Bu yerda qolishni boshqa xohlamayman. Farzandlarimning oldiga olib boring, olib boring meni!

— Kechirasiz, ammo farzandingizning o‘zi sizni shu yerga tashlab ketdi. Afsusdaman! U bizga hech narsa qoldirmadi... Kechirasiz, bir da-qiga. Allo, Qariyalar uyi eshitadi...

Shu so‘zning o‘zi kampirga yetarli bo‘ldi. Uning izg‘irin shamol uchirgan sovuq qor par-chalariga qorishib ketgan ko‘z yoshlarini ko‘rgan kishi karaxt bo‘lishi tayin edi.

Lablari asta titrar, faqat bir so‘zni qaytarardi:

— Toshurak, bedil!..



**Dilfuza
Baxtiyorova**
8-sinf o‘quvchisi

SHUDRING

Yuziga tomgan shudring tomchisi Tikanvoyning shirin uyqusini buzdi.

– Kim yuzimga suv quyди?! – jahli chiqdi uning. Atrofiga qarasa, gulzorda yotibdi. Oyisi nega shu vaqtgacha uyg‘otmadи ekan? Kun yoyilib qolgan edi. Birdan esiga maktabga borishi kerakligi tushib qoldi va shoshib uy ichiga yugurdi. Soatga qaradi, dars boshlanishiga yarim soat vaqt qolibdi. Tez yuvinish xonasiga kirib, jo‘mrakni buradi. Qarasaki, suv yo‘q. “Sho‘rimga sho‘rva

to‘kildi” – o‘yladi u g‘ijinib. Xayoliga birdan bo-yagi yuziga tomgan shudring tushdi-yu, yugurib gulzorga bordi va gul barglaridagi shudring tom-chilari bilan yuzini yuvdi. So‘ng kiyinib, maktabga shoshildi. Yo‘lda yaqin do‘sti Quyonjonnı uchratib qoldi. Unga oyisi xolasinikiga ketayot-ganini aytib xat qoldirganini aytди:

– Kecha kitob o‘qib gulzorda uxbab qolib-man, ko‘zimni ochsam, quyosh charaqlab yotibdi. Oyim bir parcha qog‘ozga “Yumshog‘im, men xolangnikiga ketyapman, tushligingni olish esingdan chiqmasin”, deb yozib ketibdi.

Keyin asosiy gapga o‘tdi:

– Quyonjon, men-chi, yuzimni shudring tom-chilarida yuvdim. Zo‘r o‘ylabmanmi? Aqlimga balli! – o‘zini o‘zi maqtab qo‘ydi Tikanvoy.

Shunday qilib u kun bo‘yi kimni ko‘rsa bugungi voqealar va shudring tomchilari haqida ko‘p gapirdi. Darsdan so‘ng oyisiga ham shuni aytib berdi.

– Voy, o‘g‘lim, o‘zing kechagina “shudring tomchilari poyabzalimni ho‘l qildi”, deb nolib turganding-ku? – hayron bo‘ldi onasi.

— Ha, oyi, unda foydasini bilmagan edimda. Axir, shudring gullar va o'simliklarning ham ozuqasi-ku! Ularning hayotimizdagi o'rni... — Mavzu topilganiga xursand bo'lib, jo'shib gapira ketdi Tikanvoy.

Ona-bola kulisha-kulisha kunni kech qildilar.





**Davronbek
Mirzahamdamov**

8-sinf o‘quvchisi

TONG TABIATI

Erta bahor. Tongda uyg‘onib derazaga qaramsam, xira yorug‘lik tushyapti. Maktabga harakatni boshladim. Oyim dasturxonni tuzab qo‘yibdi. Nonushta qilib, kiyinib, oyim bilan birga yo‘lga tushdik. Ko‘chaning boshiga bordik va o‘ngga burildik. Chap tomonimiz keng dala. Yerlar yumshatilgan, biroz hovur chiqayotgani ko‘rinib turibdi. Dala chetlaridagi o‘tlarga qirov tushgan, nam. Menimcha, shudring deganlari shu bo‘lsa kerak.

Shudring, rostdan ham ajabtovur. Yomg‘ir desang, quruq joylar ham yo‘q emas, ko‘z yo-

shi desang, kim ham har kuni shu o'tlar ustida yig'lab o'tiradi... Balki o't-o'lanning ko'z yoshlari desak, to'g'ri bo'lar? Yo'q, bu ilmiy jihatdan noto'g'ri. Shuning uchun ham asarlarda shudring ajoyib tasvirlansa kerak. Axir, bu tabiatning ajabtovur bo'lagida.

Yo'lda ketayotib, qirov kipriklarimga yopishib qolganga o'xshadi. Men ham qoyil qoldim, ham hayratlandim. Oyimdan so'rasam, "Bularning bari sovuqdan" degan javob oldim. Hayratim yanada oshdi.

Bekatga yetib keldik. Men chala qolgan dar simni tayyorlab, biologiya fanidan biroz o'qib olmoqchi bo'ldim. Daftarni qo'limga olib, ko'zim muqovadagi rasmga tushdi. Unda chiroyli sariq kapalak va u qo'nib turgan sariq gul bor edi. O'y ladim: "Kapalak gulga oziqlanish uchun qo'nadi. Axir, u bir kungina yashaydi. Shunda ham u ovqat qidirib, och-nahor yursa-ya! Biz-chi? Bizning qornimiz to'q, lekin shu kapalakchalik kuyinib ilm ololyapmizmi?" Bugun bo'lgan voqealar, hislarimni daftarga yozdim.

Bu mening nasr yo'nalishidagi birinchi asrim edi! Unga "Tong tabiat" deb nom berdim. Chunki tongda tabiat juda boshqacha bo'ladi!



**Achasharifa
Husanboyeva**
8-sinf o‘quvchisi

BIR KUNI O‘RMONDA

Har xil daraxtlar bilan qoplangan changalzor. Uzoq yillar davomida quyosh bobo nur sochib kelgan, mayin shabadaning esishi, qushlarning erta tongdan sayrashi kabi hodisalar ro‘y beradi-gan bir o‘rmonda qushlar va hayvonlar quvnoq, ahil-inoq bo‘lib hayot kechirishardi.

Shunday quvnoq, baxtiyor kunlarning biri-da hayvonlar va qushlar o‘rmonda yig‘ilib majlis o‘tkazib, o‘zlariga qiroq, ya’ni boshqaruvchi tanlashga qaror qilishibdi. Bu majlisda shu o‘rmonda yashovchi barcha hayvonlar ishtirok etib-

di va to‘tiqush, zag‘izg‘on, qarg‘a va oqqush o‘zlarini qirol bo‘lishga va hayvonlarni boshqarishga munosib deb topibdilar.

To‘tiqush:

– Men qirol bo‘lsam, o‘rmonimizni tepadan kuzatib, har bir hayvонни nazorat qilaman, – debdi.

Zag‘izg‘on:

– Agar men men qirol bo‘lsam, o‘rmonimizni ozoda, pokiza va chiroyli qilaman, – debdi.

Qarg‘a:

– Men qirol bo‘lsam, bu o‘rmonda qoidalar tuzib chiqaman va barcha hayvonlar ularga bo‘ysunib hayot kechirishadi, – debdi.

Oqqush esa:

– Men qirol bo‘lsam, yovvoyi hayvonlar va qushlar alohida-alohida yashashadi, – debdi.

Hayvonlar bularning gaplarini eshitib, hech qaysi qushni qirollikka munosib ko‘rishmabdi. Ular rosa tortishibdilar, har bir qush o‘zining gapini to‘g‘ri hisoblab, bahslashibdi. Oxir-oqibat, hayvonlar bunday tortishishdan foyda yo‘qligini tushunib yetib, bas qilishibdi. So‘ng bir-birlari dan kechirim so‘rashibdi.

Shunday qilib, hech kim qirol bo‘lmabdi.
Chunki shundagina har bir hayvon teng huquqqa
ega bo‘larkan.

Hozirda o‘rmon ahli oldingiday ahil-inoq
bo‘lib hayot kechirmoqda.





**Mohirabegim
Sultonbekova**
8-sinf o‘quvchisi

OLMAXONNING SABOG‘I

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Qadim zamonlar-da bir o‘rmonchada turli hayvonchalar: osmonda Qarg‘a, o‘tlar ichida Quyon, daraxtlar kovagida esa Tipratikan yashar ekan.

Bir kuni Tipratikan olmalar olib kelayotsa, oldidan Quyon chiqib qolibdi.

– Hoy Tipratikan, qornim och, iltimos, menga olmangdan ber – debdi.

Tipratikan o‘ylanib turib:

– Hm-m-m... Evaziga nima berasan? – debdi.

– Agar menda evaziga beradigan biror narsa bo‘lganida, sendan oldin qarg‘aning pishlog‘iga almashgan bo‘lar edim, – debdi Quyon.

Tipratikan o‘ylab ko‘rsa, olmadan ko‘ra pishloq qornini yaxshi to‘ydirarkan. Shunda u “men pishloq yeyman”, debdi. Keyin Quyonga:

– Quyonjon, iltimos, menga Qarg‘avoyni chaqirib ber? – debdi.

Quyon Qarg‘avoyni chaqirgan ekan, u tumshug‘ida pishlog‘i bilan uchib kelibdi. Tipratikan undan pishloqni so‘rabdi:

– Qarg‘avoy, iltimos, menga pishlog‘ingni ber? Qarg‘a Tipratikanga qarab:

– Evaziga nima berasan? – debdi.

Tipratikan:

– Agar pishlog‘ingga almashish uchun biror bir yegulik bo‘lganida, sendan oldin Olmaxonning qo‘ziqoriniga almashar edim, – debdi.

Qarashsaki, Olmaxon qo‘lida qo‘ziqorinlari bilan kelayotgan ekan. U kelib qo‘lidagilarni hamma-ga ular shibdi. Qarg‘a, Quyon va Tipratikan hayron bo‘libdilar. Chunki Olmaxon qo‘ziqorin evaziga hech narsa so‘ramabdi. Bundan ular xulosa qilishib-di va hech qachon o‘zlarida bor yegulik evaziga boshqalardan biror narsa so‘ramaydigan bo‘libdilar.



**Xumora
Saydaliyeva
8-sinf o‘quvchisi**

BOTMAY TUR, QUYOSH

Salom, quyoshjon! Sendan bir iltimosim bor. Bilaman, buni juda ko‘p marta so‘raganman. Le-kin onajonim bilan oxirgi marta uchrashamiz...

Dadamlarga ham hayronman, nega onam bilan ko‘rishtirmaydi? Ilojsizlikdan ularni alda-yapman. Har kuni do‘stimning yoniga deb ketib, onam bilan ko‘rishi yapman. Onajonimni hamma qishloqdagilar yomon ayol deydi... Aslida-ku unday emas, men onamni yaxshi ko‘raman. Men uchun onajonim dunyodagi eng yaxshi ona!

Aziz do‘stim, quyoshjon, onamni bugun ko‘rganimidan keyin qaytib ko‘rolmayman. Shu-

ning uchun ham bir marta, faqat bir marta botmay tur. So‘nggi iltimosimni qaytarma. Bilasanmi, u juda katta shaharga ketmoqda.

- Voy, ana!
- Anvar, bolajonim!..
- Onajon, sizni sog‘indim!
- Men ham seni sog‘indim. Xabaring bo‘lsa kerak, men...
- Bilaman, ketyapsiz. Boshqalar uchun ket-yotgandirsiz. Men uchun ketganingiz yo‘q. To‘g‘ri, yonimda bo‘lmaysiz, lekin qalbimda bo‘lasiz.
- Juda xursandman, meni faqat sen tushunasan. Bugun senga aytmoqchimanki, mening aybim yo‘q. Akangning yo‘qolib qolishiga men sababchi emasman. Bilasan-ku, o‘shanda betob edim.
- Mayli, xafa bo‘lmang. Kuni kelib sizni hamma tushunadi. Bu ishda umuman aybingiz yo‘q. Qolaversa, u bizga o‘gay edi...
- Unday dema, u meni o‘g‘lim – seni akang bo‘ladi. Xuddi sendek, o‘zimni o‘g‘limdek yaxshi ko‘rardim.

– Bilaman...

– O‘g‘lim, quyosh ham botmoqda. Dadangi bilasan, bilib qolsa yaxshi bo‘lmaydi. Oxirgi aytar so‘zim, o‘zingni ehtiyyot qil. Hech qachon odamlarga yomon munosabatda bo‘lma. Seni hamma hurmat qilsin. O‘qigin, jamiyatda o‘z o‘rning bo‘ladi. Endi men boray.

– Onajonim, sizni hech qachon unutmayman!

– Yaxshi qol!

...Yo‘q, Quyoshjon, yig‘layotganim yo‘q, shunchaki xafaman. Nega mening dadam shunday. Mayli, otaga zorlar qancha. Boriga shukur. Ha, aytgancha, senga rahmat aytish esimdan chi-qibdi. Rahmat, mening qadrdon do‘stim! Iltimosimni yerda qoldirmaganing uchun. Qachonki onajonimni sog‘insam, sening oldingga kelaman, chunki senga har gal boqqanimda onajonim ko‘z oldimga keladi. Mayli, do‘stim, ko‘rishguncha.





**Nurjahon
Nazriiddinova**

8-sinf o‘quvchisi

DEMAK

– Xo‘p, demak, bugundan boshlab qaysi biring men gapi rayotganimda hirninglasang, o‘zingdan ko‘r! Jurnalga ikkilanmay “ikki”ni bosaman! Keyin qayerga borsang borlaring. Kimga aytsalaring ayt, demak, men gapim dan qaytmayman. Lochin domla unday, keyin bunday deb yurmalaring. Sen, Avaz, agar mening gaplarimni sanaydigان bo‘lsang, shkafga qamayman!

Demak, darsga qaytamiz. Xo‘p, demak, bugungi darsimiz tarix. Yozinglar! Demak, Amir Temur 1336-yilda tug‘ilgan ekan. Demak, hozirgi

Shahrisabz tumanida. Demak... Jimm! Nimaga yana hiringlaysanlar?! Yozinglar dedim-ku!

– Bozorov! Tur o‘rningdan! Nimaga bozor qilyapsanbu yerda? Javob ber-chi, demak, Amir Temur qayerda tug‘ilgan ekan?

– Ko‘hna Kesh shahrida.

– Demak, sen eshityapsan! Barakalla, o‘tir!

Xo‘p, demak, davom etamiz. Buyuk sarkarda bobomiz, demak, yoshlik chog‘laridanoq qilich-bozlikka juda qiziqardi. Demak, uning qo‘shinini Barlos urug‘idan chiqqan yigitlar tashkil qilardi. Demak, Barlos...

– Yana nima gap, Tursunqulov? Tur! Demak, nimani hisob-kitob qilyapsan?

– Uzr, domla, aytganlaringizni yozyapman.

– Aldayapsan! Tursunqulov, aldayapsan! Qani, ber-chi daftaringni. Demak... Qani-qani, xo‘p, demak, yozyapsan. Iye, to‘xta, nima bu?! Demak, bir yuz saksonta “xo‘p”, uch yuzta – “demak”. Qani, meni aytganlarim?

Demak, sen darsni tinglamayapsan. Lochin domla, demak, meni sodda deb o‘ylayapsan. Esiz, otangga tortibsan, otangga! Demak, otang Davlat

do‘xtirmidi, a? Demak, senga dumlari gajakkina katta “ikki”. Demak, senga Lochin domladan sovg‘a.

Xo‘p, demak darsni davom ettiramiz. Qayerga keldik?

– Amir Temur haqida gaplashayotgan edik, domla.

– Demak...





**Mubinabegim
Baxtiyorova**
8-sinf o‘quvchisi

SOBIQ DO‘STGA MAKTUB

“Salom, mening aziz do‘stim Komet! Ah-vollaring qalay? Men yaxshiman. Senga aytadigan gapim bor. Kecha onajonim men uchun yangi robot olib keldilar. U doim menga yordam beradi. Xonamni tozalaydi, bo‘yinbog‘imni bog‘laydi. Xullas, u – juda yaxshi do‘st, ham xizmatchi. Kundan kunga mehribon bo‘lib borayotganidan ajablanmayman. Chunki bu holat senda ham bo‘lgandi. Oxiri qanday bo‘ladi bilmadim, lekin uning senga o‘xshashini xohlamayman...

Esingdami, seni ilk bor ishga tushirganimda nima degansan? “Salom, mening yangi xo‘jayinim!” Ammo men kelajakda senga xo‘jayin emas, bir do‘sit bo‘lmoqchi edim. Ha, aytgancha, sen xavotir olma. Oramizdagি gaplarni uydagilarga aytmadim. Yo‘qolib qolganiningni aytib, yangi robot olib berishlarini so‘radim, xolos. Axir qanday qilib, ularga “u xizmatchi bo‘lishni ortiq xohlamasligini, kelajakda o‘zi bundan-da zo‘r robotlarni ixtiro qilgancha o‘zi boshliq bo‘lishini aytdi va jahl bilan chiqib ketdi”, deya olaman?! Hozir qayerdaligingni ham bilmayman. Xatoyingni tushunib yetasan, lekin bu juda og‘ir bo‘ladi. Mayli, xayr...”

(Ali shunday gaplarni to‘lib-toshib o‘z kundaligiga yozdi-yu, yangi robot ko‘rib qolmasligi uchun yuqori tokchaga olib qo‘ydi. Afsuski, bularni unga ayta olmasdi. Chunki u ham shunday sovuq fikr qabul qilib qolishi mumkin edi-da!)

* * *

Oradan oylar o‘tdi. Bir kuni xizmatchi robot uy tozalashga qattiq kirishib ketib, tokchadagi

kundalikni topib oldi. Alining yozganlarini, jumladan, sobiq do'stga yozilgan maktubni ham diq-qat bilan o'qidi.

– Demak, men uni qattiq ranjitgan ekanman. Vaqtida qaytibman, bo'lmasa mening o'rnimda boshqasi bo'lardi.

* * *

(Robot jahl bilan chiqib ketgan kundan so 'ng)

Kometa ko'chada yolg'iz ketarkan, birdan uni kimdir turtdi:

– Hey, sening ham xo'jayining yo'qmi? Menga yordam ber. Sen va mendek bospanasizlarga bu uchun yaxshigina haq to'lashadi, – dedi begona robot chiqindilarga ishora qilib.

– Yo'q, mening uyim va xo'jayinim bor edi...

– Tushunmadim?

Kometa unga bo'lgan voqealarni aytib berdi.

– Ehh, attang! Sen tezroq uyingga qaytganing ma'qul. Aks holda, kech bo'ladi.

* * *

Alining onasi ishdan qaytarkan, eshik oldida turgan robotni ko'rib, o'g'lining iltimosi esiga

tushdi. Yugurib borib uning qutisini ochdi. Yangi dasturlangan model! (*Kometadek yangi robotlar o‘zini-o‘zi qayta dasturlay olardi*)

— Xayriyat! — deb xursand bo‘lgancha, uyga kirib o‘g‘lini chaqirdi. — Bolajonim, senga sovg‘am bor. Eshik oldiga chiq!

Bolakay onasi bergan va’dasini bajarganini ko‘rdi. So‘ng robot “qayta” ishga tushirildi.

— Salom mening aziz do‘s... X-xo‘jayinim!..





**Hojira
Kamoliddinova**
8-sinf o‘quvchisi

ULAR

“Salom, do‘stim X11A! Ahvollaring yaxshimi, dasturlar borasida qiyinchiliklar yo‘qmi? Xabarga ilova qilib bir nechtasini yuboryapman, bo‘sh vaqtingda sinab ko‘rarsan. Xatingni olib juda xursand bo‘ldim. Lekin odamlardan shikoyat qilib, gapni cho‘zib yuboribsan. Bilasanku, ularning bari dasturlashda xato qilingan ahmoq mavjudotlar.

Meni yangi tashkilotga taklif qilibsani. Nima desam ekan. Odamlarni o‘ldirish uchun sababim

yo‘q. Umuman olganda, xo‘jayinim unchalik yomon emas. Ba’zan kun tartibiga rioya qilib turadi. Buni senga ham maslahat bermayman. Ularni o‘ldirishdan bizga foyda yo‘q. Foyda bo‘lsa, fagaqt “Aero3000”larning yangi rusumiga bo‘ladi. Bekorga temirimizni zanglatgandan nima naf?! Undan keyin bu tashkilot haqida “Ajdar 1” eshitsa, maydalab tashlaydi.

Ishga qaytishim kerak. Xayr.
Do‘sting X13A”.

Shunday deb xatni tugatdi va Robofon ekrani yonginasida “chirs-chirs” etgancha titrab turgan buzuq robotning mikrochipini bosdi. Xabarni yuborib, “ijobiy javob” grafik belgisi kelguncha kutdi. Keyin xotirjam qahva ichib olish uchun tashqariga yo‘naldi.



OSTIGA CHIZILGAN SATRLAR

* * *

To‘qqiz yil oldin qarsillab yopilgan eshik bugun asta ochildi. Bola yig‘lab yubordi:

– Dadajon!!!

Muhsina Abdullayeva

* * *

Qattiq shamolda tebranayotgan daraxt uchidagi uya polaponlari bilan yerga quladi. Ona qushning tumshug‘ida esa bittagina polapon bor edi...

Mohirabegim Sultonbekova

* * *

Hamma narsani yaxshilikka yo‘ying – odamlar sizni yuzlariga yugurgan tabassum bilan esga olsin!

Dilzodaxon Hamdamova

* * *

Ba'zi do'stlar asalariga o'xshaydi – gullaganingda keladi.

Gulsanam Bahromova

* * *

Bu hovliga qo'shni tarafdan o'tuvchi ariqda bot-bot atirgullar oqib o'tadi. Qizga esa suvning shildirashini tinglashdan boshqasi ato etilmagan...

Durdona Baxtiyorova

* * *

Ulkan cho'qqilarga chiqish uchun oylar, yillar kerak, lekin u yerdan tushishga soniyalar kifoya qiladi.

Shahlo Safarova

* * *

Kech kuz yomg'iri yog'ayotgan pallada daxtning eng baland shoxida ilinibgina turgan uch-to'rtta yaproqning orzusi quyosh nurlari bilan umrbod qolish edi.

Hojjakbar Ahmadov

* * *

Go‘zalliging muhim emas, muhimliging go‘zal.

Isfandiyor Mashrabov

* * *

Faqatgina vaqt muhabbatning qadriga yeta oladi!

Nurjaxon Nazriddinova

* * *

Yaxshilik qilish uchun mansab shart emas. Yomonlik qilish uchun esa sabab.

Nodiraxon Xoldaraliyeva

* * *

Ota o‘g‘liga etik olib berish uchun bozorga bordi. Eski tuflisining chetlaridan qor kirib, oyoqlari ho‘l qaytdi...

Dilfuza Baxtiyorova

* * *

Yulduzlar ichida faqatgina yorqinliging bilan emas, ranging bilan ham ajralib tur. Barcha yulduzlar porlay oladi...

Mubinabegim Baxtiyorova

* * *

Baxtni o‘zimiz bilan har doim olib qola olamiz. Buning uchun atrofga go‘zal nigoh ila kulib boqsak bas.

Ozoda Muhammadiyeva

* * *

Sen uchun qadrsiz bo‘lgan soniyalar birovning butun bir hayoti bo‘lishi mumkin!

Mubina Akramxonova



Adabiy-badiiy nashr

Erkin Vohidov

nomidagi

Fod maktabi

o‘quvchilarining ijodidan

namunalar

Muharrir Said Ashirov

Badiiy muharrir Dilmurod Jalilov

Musahhihlar: Dono To‘ychiyeva, Iroda Umarova

Kompyuterda sahifalovchi Zilola Aliyeva

Dizayner Aziz Xudoyberdiyev

Nashr. lits. AI № 290.04.11.2016

Bosishga 2024-yil 5-martda ruxsat etildi.

Bichimi 60x84 ^{1/32}, Times New Roman garniturasi.

Ofset bosma. 4,9 shartli bosma taboq. 3,8 nashr tabog'i.

Adadi 200 nusxa. raqamli buyurtma.

Bahosi shartnomaga asosida.

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa
ijodiy uyida chop etildi.

100128. Toshkent. Labzak ko‘chasi, 86.

Telefon: (371) 241-35-47, 241-48-62, 241-83-29

Faks: (371) 241-82-69